

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX VA MADANIY MEROS FAKULTETI  
JAHON TARIXI KAFEDRASI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: “IBN SINO ILMUY MEROsi-TARIXIY MANBA SIFATIDA.”**

**5220200 –“Tarix” ta'lism yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun**

*Tarix ta'lism yo'nalishi bitiruvchisi:*

*Yusupova Asaloy*

*Ilmiy rahbar:*

*o'qituvchi Yusupova M.O'.*

**Buxoro – 2019**

## MUNDARIJA

**KIRISH.....3-7.**

**I-bob. Abu Ali ibn Sinoning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining shakllanishi.**

- 1.1. Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyatiga umumiy tavsif.....8-19.  
1.2. Ibn Sino ijodida insonparvarlik g'oyalarining tarixiy manbaviy ahamiyati.....20-27.

**II-BOB. Ibn Sinoning tibbiyot faniga oid asarlarining manbaviy ahamiyati.**

- 2.1. Ibn Sino tabobati va bu borada yaratilgan ilmiy asarlar ko'lami.....28-37.  
2.2. Ibn Sino merosining o'rganilishi, mohiyati, vazifalari.....38-47.

**Xulosa.....48-50.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....51-53.**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng buyuk allomalarimiz va ajdodlarimiz merosi qaytadan tiklandi va o'rganila boshlandi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, beba ho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarish nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi" <sup>1</sup> Ayniqsa, milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish, jahon sivilizasiyasiga beba ho hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy - ijodiy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratilayotgani, birinchi prezidentimiz Islom Abdug'niyevich Karimovning 2014 yil Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizasiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi ma'rzasida O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosi chuqr tahlil qilindi. Buxoroi Sharifda tug'ilib o'sgan tibbiyot ilmining sultonı Ibn Sinoning jahon ilm - fani, xususan, medisina taraqqiyotiga qo'shgan beba ho hissasini g'urur va ehtirom bilan o'rganar ekanmiz, Ibn Sino jamoat fondi tashkil etilgani, o'tgan asrda kashf etilgan yangi yulduzga Ibn Sino nomi berilgani va Buxoro viloyat Peshku tumanidagi kollejga Ibn Sinoning nomi berilganini faxr bilan tilga olamiz. Buxoroda "Ibn Sino merosi: Zamonaviy tibbiyot va amaliyot" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi" va ushbu anjumanga Ibn Sino jamoat fondi boshqaruvi raisi Sh. Zokirjo'jayev: "O'z ilmiy - tadqiqot ishlarini 16 yoshdan boshlagan bu allomaning 450 dan ortiq yaratgan asarlari bugun nafaqat tibbiyot balki barcha fanlarning rivojiga ulkan hissa qoshib kelmoqda" - dedi<sup>2</sup>.

Abu Ali ibn Sino asarlarining 242 tasi bizgacha yetib kelgan bo'lib, ular jahon ilm - fani rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shgan hamda bu durdona asarlar

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. – B.326.

<sup>2</sup> Yodgorov E. Ibn Sino merosi: zamonaviy tibbiyot va amaliyot // Ma'rifat.11-son, 2015 yil 21- noyabr.-B.7

hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Birinchi prezidentimizning “Adabiyotga e'tibor – ma`naviyatga, kelajakka e'tibor” va “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarlarini qayta-qayta o'qir ekanmiz, har safar ushbu o'gitning nechog'lik haqqoniy ekanligiga amin bo'lamiz. Ma'lumki, ma`naviyat – o'zlikni anglashdan boshlanadi. Shuning uchun ham birinchi prezidentimizning aksariyat asarlarida buyuk allomalarimiz ilmiy merosini o'rganish masalasiga katta e'tibor berib kelinmoqda<sup>3</sup>.

Milliy qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga singdirishda qadimdan meros bo'lib kelayotgan asarlar katta rol o'ynaydi. Bunga, Ibn Sino ijodidan, ilmiy merosidan kelib-chiqib ham shunday fikrlar aytish mumkin. O'zbek adabiyoti tarixining mumtoz davriga mansub ijodkorlar orasida o'ziga xos uslubga, ijodiy yo'lga ega bo'lgan Ibn Sinoning katta o'rni bor. Chunki, O'rta Osiyo olim va ijodkorlariga aloqador bo'lgan ijod ahli haqida fikr yuritgan barcha olim, tarixchi, adabiyotshunoslar, albatta, Ibn Sino hayoti va ijodi haqida to'xtalgan va o'zining ijobiy fikr mulohazalarini bildirib o'tgan. Ibn Sino merosi misoli bir dengiz ostidagi xazinaga o'xshaydi va biz mana shu xazinadan foydalanib, o'z ornida ishlata olsak, ko'pchilik sohaning rivojida katta hissa qo'shgan bo'lamiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Ibn Sino ijodini tarixiy davrdagi hayot bilan bog'liq holda o'rganish davr talabiga aylanib qoldi, deyish mumkin. Ibn Sino asarlarini badiiy jihatlarini o'rganish ana shu xayrli ishning bir qismidir. Shu sabablarga ko'ra ushbu bitiruv-malakaviy ishimizning mavzui dolzarbdir.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi o'rta asrlarda ilm – fan, madaniyat, ayniqsa tibbiyat rivojiga hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosini o'rganish, hayotga tadbiq etish, yosh avlodga yetkazish dan iborat.

Tadqiqotning bosh maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal qilishga asosiy e'tibor quyidagilarga qaratilgan:

---

<sup>3</sup> Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma`naviyat”, 2008. – B.140.

► O‘rtta Osiyoda Uyg’onish davrida ilm-fan rivojini o’rganish, tahlil qilish va tadbiq etishdan iborat.

► Abu Ali ibn Sinoning boy ilmiy merosi bilan tanishish va tushuncha hosil qilish.

► Ibn Sinoning jahon tibbiyot ilmining rivojlanishiga qo’shgan hissasini o’rganish va tahlil qilish.

**Mavzuni o‘rganilish darajasi.** Ibn Sino o’zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr sharq va g’arb madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko’rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, At-Taftazoniy, Nosir Xisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug’bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o’z asarlarida ilm sohasidagi ta’limoti va ilmiy g’oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari 12 asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o’qitala boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert Fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sinoning ilg’or fikrlaridan o’z ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo’r hurmat bilan tilga oldilar.

Ibn Sino ilmiy merosini o’rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O’zbekistonda maxsus ilmiy yo’nalish — Sinoshunoslik vujudga keldi. “Tib qonunlari” ning lotincha tarjimasi to’liq holda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo’lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O’zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutda ham alloma qalamiga mansub 50 ta asarning 60 ta qo’lyozmasi mavjud. Yevropa olimlari Ye. Bishmann, Yu. Ruska Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez,

Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari U. Najotiy, N. Nodir, Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsono'g'lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G'araba, M. Shohvardiy va boshqalar Ibn Sino ijodini o'rganishga ma'lum hissa qo'shdilar. Rossiyalik olimlardan Ye. E. Bertels, Ya. Borisov, Braginskiy, I. Grigoryan, A. Petrov, A. Rozenfeld, N. Ternovskiy, V. Sagadeyev, M. Rojanskaya, tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev, A. Bahovuddinov, Yu. Nuraliyev bu yo'naliшning rivojlanishiga xizmat qildilar. O'zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Salye, P. G. Bo'lgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T. N. Qoriniyoziy, I. M. Mo'minov, M. M. Xayrullayev, M. N. Boltayev, A. Axmedov, G. P. Matviyevskaya, V. K. Jumayev, N. Majidov, O. F. Fayzullayev, M. B. Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan. Rus antropolog M. M. Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sino ning ham kalla suyagi asosida haykalportretini yaratgan. Andijon tibbiyat intituti xodimlari Yu. O. Otabekov, Sh. H. hamidullin, Ye. S. Sokolovalar Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykalbyustda tasvirladilar (1965 y). O'zbekistonlik rassom S. Marfin Ibn Sino badiiy portretini ishlagan (1968 y). Ibn Sino haqida "O'zbekfilm" studiyasi ijodkorlari (rej. E. Eshmuhamedov; O. Agishev, E. Eshmuhamedov ssenariysi) "Dahoning yoshligi" tarixiy-biografik badiiy filmini (1984 y) yaratdilar.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik uslublarini** Ibn Sino asarlaridagi ma'rifatparvarlik g'oyalarini tahlil qilindi va ularning ahamiyati ko'rsatildi; Ibn Sino ijodiga xos bo'lgan uslublar tahlil qilindi.

Mazkur bitiruv – malakaviy ishimiz natijalari va ilmiy xulosalaridan Ibn Sinoning ijodiy merosiga oid ma'ruzalarni hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda ham foydalanish mumkin. Shuningdek, Ibn Sino hayoti va ijodi bilan bog'liq adabiy kecha va uchrashuvlar o'tkazishda ham foydalanish mumkin. Bu xususiyatlar mazkur ishimizning amaliy jihatlarini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida<sup>4</sup> o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati, ma’naviyatiga oid bildirilgan fikr va mulohozalari, xulosalari tadqiqotning metodologik asosini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O‘zbekiston. 1999; Tarixiy xotirsiz kelajak yo‘q. –T.:O‘zbekiston. 1998; Olloh qalbimizda va yuragimizda. –T.:O‘zbekiston 1999; O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O‘zbekiston 1997; Mamlakatimizda demokratik isloxtolarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish kotsepsiysi. –T. O‘zbekiston. 2010; Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T.: O‘zbekiston. 2011.

## I–bob. IX – XII arslarda O‘rta Osiyo Uyg’onish davri tarixining o’rganilishi

### 1.1. Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyati

Ibn Sinoning tarjimayi holi va hayoti haqida saqlanib qolgan, davrimizgacha yetib kelgan manbalarning ko'rsatishicha, uning to'liq ismi Abu Ali al-Xusayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir. Ammo qisqaroq qilib uni Abu Ali ibn Sino deb atashadi. Alloma 980 – yilning 18 – iyunida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib, Somoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976 – 997 y) davrida Buxoroga ko`chib keladi va o`sha atrofdagi Xurmiton<sup>5</sup> qishlog`iga amaldor etib tayinlanadi. Keyin u Afshona qishlog`ida ham istiqomat qiladi va shu qishloqlik Sitorabonu ismli qizga uylanadi. Ularning ikki o`g`illari bo'lib, shulardan kattasi Husayn edi. Husayn 5 yoshga kirgach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt — Buxoroga ko`chib keladi va uni shu yerda o`qishga beradilar. Ibn Sino avval Qur'on va adab darslarini o`qiydi va 10 yoshga yetar-yetmas bu darslarni to`la o`zlashtirib oladi. Ayni vaqtda u arifmetika va algebra fanlari bilan ham shug`ullanadi. Ibn Sino nihoyatda iste'dodli,xotirasi o'tkir,zehinli bo'lganligi sababli yoshligidan barcha bilimlarni tez va chuqur egallagan.Tarixiy manbalarning xabar berishicha,u 10-13 yoshlarida mantiq, fiqh, falsafa, matematika, tibbiyat masalalari bilan shug`ullanangan<sup>6</sup>. Bulardan tashqari, uyida Abu Abdulloh an-Notiliydan mantiq, geometriya va astronomiya fanlaridan saboq oladi. Shu bilan birga Abu Ali ibn Sino tabiiy fanlar bilan ham jiddiy shug`ullanadi, xususan, tabobatni sevib o`rganadi. U o`zining o`tkir zehni tug`ma iste'dodi va mehnatsevarligi bilan darslarni tezda o`zlashtirar va hatto muallimlariga noma'lum narsalarni ham kitobdan mustaqil o`qib-o`rganib olardi. Ayniqsa, tib ilmida u juda tez kamol topa boshlaydi. “Tib ilmi, — deb yozadi Ibn Sino o`z tarjimai holida, - qiyin ilmlardan emas, shu sababli qisqa muddat ichida bu fandan juda ilg`orlab ketdim, endi hatto bilimdon tabiblar ham huzurimga kelib tib ilmidan dars oladigan bo`ldilar.

<sup>5</sup>Xurmiton-hozirgi Buxoro viloyati Romitan tumani.

<sup>6</sup>Karimov B. Ibn Sino ma'rifat va jaholat haqida.//Buxoro mayjlari. 2-som, 2013 yil 12 fevral.- B.8.

Bemorlarni ham ko`rib turardim va shu yo`sinda orttirgan tajribalarim natijasida muolaja eshiklari menga shu qadar keng ochilib ketdiki, uni ta'riflab berish qiyin”<sup>7</sup>. Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida nom qozonadi. O`sha kezlarda Somoniylar davlatining boshlig`i Nuh ibn Mansur kasal bo`lib, saroy tabiblari uni davolashga ojiz edilar. Buxoroda yangi chiqqan yosh tabibning ovozasi saroya ham yetib borib, uni amirni davolashga taklif qiladilar va u davolagach amir tez fursatda oyoqqa turadi. Buning evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladi. Bu kutubxona o`sha vaqtida butun O`rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan sanalardi. Bir necha yil davomida kecha-kunduz tinmay mutolaa qilish natijasida Ibn Sino o`z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirdiki, u davrda shu qadar bilimga ega bo`lgan boshqa bir kishini topish mushkul edi. U o`zining birinchi yirik ilmiy asarlarini ham Buxoroda 1000 – 1001 – yillarda yozadi. O`z qo`shnisi va do`sti bo`lgan Abul–Husayn al–Aruziyning iltimosiga ko`ra riyozatdan boshqa barcha fanlarni o`z ichiga olgan “Al – hikmat al – aruziya” nomli asarini<sup>8</sup>, boshqa bir do`sti fiqh va tafsir ilmlarining bilimdoni Abu Bakr al – Barqiy al – Xorazmiyga atab ensiklopedik maqomga ega bo`lgan 20 jildlik “Al – hosil val – maqsul” deb atalgan asarini yozadi.

999 – yili Qoraxoniylar Buxoroni zabit etib Somoniylar davlatini qulatadilar. Bundan tashqari, ayrim feodal hukmdorlar orasidagi o`zaro urushlar hamon tinmay davom etar va bu voqealar Buxoroda tinch va xotirjamlikda ilmiy ishlarni davom ettirishga imkoniyat bermas edi. Buning ustiga 1002 – yili Ibn Sinoning otasi vafot etadi. Oqibatda Ibn Sino o`z yurti Buxoroni tark etib, Xorazm (Urganch) ga ketadi. Xorazm ham O`rta Osiyoning qadimiy boy va madaniy viloyatlaridan biri bo`lib, XI asrning boshlarida u yerda ilm – fan ancha rivojlangan edi. Xorazmshohlar Ali ibn Ma'mun (997 – 1009 y) va Ma'mun ibn Ma'mun (1009 – 1017 y)lar davrida Urganchda ko`pgina zamonasining taniqli olimlari yashab ijod etgan edilar. Yirik matematik va astronom Abu Nasr ibn Iroq , atoqli tabib va faylasuflar Abu Sahl

<sup>7</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”.- Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 6.

<sup>8</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”.- Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.16.

Masihiy va Abul – Xayr Xammor (942 – 1030 y) va buyuk Abu Rayhon Beruniy (973— 1048 y) shular jumlasidandir. O`z siyosatida ko`proq reaksiyon yo`l tutgan va har qanday hur fikrni bo`g`uvchi G'azna hukmroni Sulton Mahmud (998 – 1030 y) Xorazm yerlarini o`z davlatiga qo`shib olishga harakat qiladi. Unga tobe bo`lishni istamagan Ibn Sino taxminan 1010 – 1011 – yillarda Xorazmdan maxfiy ravishda chiqib Xuroson tomon yo`l oladi. Niso, Obivard va boshqa shaharlarda qisqa vaqt ya'ni 7 yil turgandan keyin Kaspiy dengizining janubi-sharqida joylashgan Jurjon amirligiga yetib keladi. Bu yerda u Abu Ubayd Juzjoniy bilan tanishadi, shundan boshlab bu yigit Ibn Sinoga eng yaqin va sodiq shogird bo`lib qoladi va ustozining oxirgi nafasigacha undan ajralmaydi. Juzjoniy Ibn Sinoning to Jurjonga kelgunigacha bo`lgan tarjimai holini uning o`z og`zidan yozib olgan, ustoz hayotidagi undan keyingi voqealarni ham o`zi yozib to`ldirgan, shu tufayli biz Ibn Sinoning hayoti va ijodi haqida juda ishonchli manbaga egamiz.

Ko`p o`tmay Ibn Sino Jurjonda o`zining ilmiy ishlari va tabiblik faoliyatini boshlab yuboradi. Tabobatga oid mashhur asari “Kitob al – qonun fit tibb” (“Tib qonunlari”) ning 1 – kitobini va boshqa asarlarini yozishga kirishadi. Jurjonda Ibn Sino asarlar ta'lif qilish bilan bir qatorda tabib sifatida odamlarni davolaydi ham. Ibn Sino tabibligi haqida o'ta asrlarda to'qilgan har bir afsonalar ichida Jurjonga nisbat berilganlari ham bor. Davolash, bir tomondan, Ibn Sinoga daromad manbai bo`lib xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan shu yerda ta'lif qila boshlagan "Tib qonunlari" asariga malumot bo`lib, uning nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazuvchi bir “laboratoriya” xizmatini o'tar edi. Chunki Abu Ali doim kasallarni ko'rар, ularning dardlarini aniqlar va kasallik sabablarini surishtirar, uning tuzalish jarayonini va bergen dori – darmonlarining tasirini kuzatib borar ham edi. Abu Ubayd o'z ustozining Jurjondagi hayoti haqida yozar ekan, u bu yerda birgina tabobat bilangina mashg'ul bo`lib qolmaganligi, shogirdlariga astranomiya va mantiq kabi fanlardan dars bergenini takidlaydi. Uning yozishicha u har kuni Ptolomeyning ” Al – Majistiy” kitobini Ibn Sino qoshida o'qir ekan<sup>9</sup>. Bu kezlarning birida Abu Ubayd o'z ustoziga mantiq haqida bir kitob yozib berishni

<sup>9</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”. - Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.36.

iltimos qilib qoladi. Chunki Ibn Sino mantiq ilmini juda chuqur va atroficha bilgan zotlardan edi. Shunda u shogirdiga “Al-Muxtasar al-avsat fil-mantiq” kitobini yozib beradi. Shogirdining yozishicha Abu Ali bu kitobni aytib turgan, u yozib olgan. O’sha kezlarda Ibn Sino Abu Muhammad ash-Sheroziyga atab “Kitob al mabda va al maod” va “Kitob al-arsod al-kulliya”ni yozib beradi<sup>10</sup>. Ibn Sino Jurjonda bo’lgan kezlarida juda sermahsul ijod qiladi va Jurjonda 5 yil yashaydi. 1014 – yili Ibn Sino Jurjonne ham tark etadi va bir qancha muddat Ray va Qazvin shaharlarida turgandan keyin Hamadonga keladi va buvayhiylar hukmdori Shams ud – Davla (997-1021 y) xizmatiga kiradi. Bu davrda Majduddavla abu Tolib Rustam (997-1029 y) va uning onasi Sayyida xotun hukmronlik qilar edilar. Bu yerda Ibn Sino savdoyi dardiga chalinib qolgan Majduddavlani davoladi va shu sababli saltanat tepasida turgan Sayyidaning hurmat – ehtiromiga sazovor bo’ldi. Lekin olim Rayda ham uzoq turolmadi, chunki sulton Mahmud G’aznaviyning Rayga ham hujum qilish xavfi bor edi. Shu bois Ibn Sino Rayni tark etib, nisbatan kuchliroq, bo’lgan Hamadonga, Majduddavlanining akasi Shamsuddavla (997-1021 y) huzuriga ketadi. Hukmdorni sanchiq kasalidan davolaganidan keyin olimni saroyga taklif qiladilar. U avval saroy tabibi bo’lib ishlaydi, so’ng vazirlik mansabiga ko’tariladi.

Davlat ishlari bilan band bo`lishiga qaramay, ilmiy ishlarni davom ettiradi va qator asarlar yaratadi, o`zining mashhur falsafiy ensiklopediyasi “Tib qonunlari”ning birinchi kitobini tugatib, o’zining mashhur falsafiy qomusi-“Kitob ash-shifo” ni ham shu yerda yozishga kirishadi. “Tib qonunlari” ning qolgan qismini ham Hamadonda yozib bitiradi. Ibn Sino Hamadonda 1023 yilgacha istiqomat qiladi va ayrim siyosiy sabablarga ko’ra, shu yili Isfahonga jo’nab ketadi. Umrining qolgan 14 yilini shu yerda o’tkazdi. Bu yerda ham u tinimsiz ilmiy ish bilan mashg’ul bo’lib, bir qancha asarlar yaratdi. Ular orasida tib, falsafa, aniq fanlar, tilshunoslik kabi fanlarga oid kitoblar bor. “Kitob ash-shifo”<sup>11</sup> ning qismlari, fors tilidagi “Donishnoma” va 20 jildli “Insof – adolat kitobi” shular

<sup>10</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”. - Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 36.

<sup>11</sup> Ushbu kitob 1901 yil Tehronda nashr etilgan bo’lib, 403 sahifadan iborat. To’liqroq qarang. Ирисов А. “Хаким ибн Сино”. - Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 27.

jumlasidan. 1023 – yili Isfahonga ko`chadi va “Kitob ash – shifo”ning qolgan qismlarini yozishda davom etadi. Boshqa bir qancha asarlar bilan bir qatorda fors tilidagi falsafiy kitobi “Donishnoma”ni yozishni yakunlaydi.

Ibn Sino jismoniy jihatdan ham juda baquvvat kishi bo`lgan. Biroq shaharma – shahar darbadarlikda yurish, kechalari uxlamasdan uzluksiz ishlash va bir necha bor ta'qib ostiga olinib, hatto hibsda yotishlar olimning salomatligiga ta'sir etmay qolmaydi. U qulanj (kolit) kasalligiga chalinib qolgan edi. Alouddavlaning Hamadonga yurishi vaqtida Ibn Sino qattiq betobligiga qaramay, u bilan birga safarga chiqadi. Yo`lda dardi qo`zg`ab olimning tamomila madori quriydi va oqibatda u shu darddan 57 yoshida vafot etadi. Olim Hamadonda dafn etiladi. Uning qabri ustiga 1952yil maqbara ishlangan (me'mori Sayxun). Maqbara Ibn Sinoga bag`ishlangan muzey xonalarini ham o`z ichiga oladi. Zamondoshlari Ibn Sinoni “Shayx ur-rais” (“Donishmandlar sardori, allomalar boshlig’i”); “Sharaf al-mulk” (“O’lka, mamlakatning obro’si, sharafi”), “Hujjat al-haqq” (“Rostlikka dalil”); “Hakim al-vazir” (“Donishmand, tadbirkor vazir”) deb ataganlar. Jahon fani tarixida Ibn Sino qomusiy olim sifatida tan olingan, chunki u o’z davridagi mavjud fanlarning qariyb barchasi bilan shug`ullangan va ularga oid asarlar yozgan. Olim asarlarini o’sha davrda Yaqin va O’rta Sharqning ilmiy tili bo`lgan arab tilida, ba’zilari (she’riy va ayrim falsafiy asarlari)ni fors tilida yozgan.

Ibn Sino haqiqiy ensiklopedist olim sifatida o`z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli ravishda shug`ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo`lsa ham, zamonlar o’tishi bilan ularning ko`pi yo`qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan. Shu 242 dan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tabiiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematikaga, 1 tasi musiqaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo`lgan ilmiy yozishmalarga bag`ishlangan. Bu asarlarning barchasi olimlar tomonidan bir xilda o’rganilgan va keng ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilingan deya olmaymiz. Ularning ayrimlari jahonning ko`p tillariga tarjima etilib, asrlar davomida qayta-

qayta nashr etilib kelayotgan bo`lsa, ko`plari hali turli kutubxonalarda qo`lyozma holida o`z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Olimning bizgacha yetib kelgan umumiyl falsafaga oid muhim asarlari quyidagilar:

I. “Kitob ash – shifo” Ibn Sinoning eng yirik falsafiy asari hisoblanadi, uni o`z davrining ilmiy qomusi desa bo`ladi. Bu asar 4 qismdan iborat: <sup>12</sup>

- 1) mantiq;
- 2) tabiiy fanlar (bu qismda minerallar, o`simliklar, hayvonot olami va insonlar haqida alohida-alohida bo`limlarda gap yuritiladi);
- 3) matematika, ya’ni riyoziyot ilmlari (bunda arifmetika, handasa, astronomiya va musiqa fanlari haqida bahs boradi);
- 4) metafizika, yoki ilohiyot. Bu asarning tabiiy fanlar va metafizikaga tegishli qismlari 1887 – 1888 – yili Tehronda toshbosmada nashr etilgan, mantiq qismi esa 1952 – yildan boshlab Qohirada bir necha jildda bosilgan. U biron tilga ham to`la ravishda tarjima etilmagan, faqat ayrim bo`limlarigina lotin, suryoniy, ibroney, nemis, inglez, farang, rus, fors va o`zbek tillarida nashr etilgan.

II. “Kitob an – najot” (“Najot kitobi”). Bu kitobda “Kitob ash shifo” ning mazmuni qisqartib bayon etilgan. Uning arabcha matni 1593 – yil Rimda, 1913- yil va 1933- yillari Qohirada bosilgan. Ayrim qismlari suryoniy, ibroney, lotin, nemis, farang va rus tillariga tarjima qilingan.

III. “Al-ishorat va-tanbihot” (“Ishoralar va tanbehlar”). Bu Ibn Sinoning eng so`nggi yirik asari bo`lib, unda olim falsafaning asosiy masalalarini qisqa iboralarda bayon etgan. Bu asarning arabcha matni Leydenda (1892 y), Qohirada (1947 y), Tehronda (1864 y), Istanbulda (1873 y) nashr etilgan. U fransuz (1951 y) va fors tillarida ham bosilgan (1937y, 1954 y).

IV. “Donishnama” (“Bilimlar kitobi”). Bu Ibn Sinoning fors dariy tilida yozilgan falsafiy asarlaridan eng muhimi hisoblanadi. Ibn Sino o’zining “Tib qonunlari” “Shifo”, “Najot”, “Ishorat va Tanbihot” singari ko’p asarlarini o’sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida yozgan bo’lsa “Donishnama” asarini o’zining ona tili hisoblangan dariy -qadimgi fors-tojik- tilida yaratgan. . Uning forscha matni

<sup>12</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”. - Т.: Ўзбекистон.1992. – Б. 42.

Haydarobodda 1891 yilda va Tehronda 1897-1952- yilda nashr etilgan, 1957 – yili Dushanbeda asarning mantiq,falsafa va fizika bilimlari rus tilida bosilib chiqqan. 1955-1958-yillarda Parijda fransuz tilida nashr etilgan.Uning mantiq va falsafa bo'limlarining qo'lyozmalari Toshkentda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik Institutida va Dushanbedagi Firdavsiy kutubxonasida saqlanmoqda<sup>13</sup>.

V. “Tib qonunlari”, “Kitob al – qonun fit – tibb”. Bu kitob o'sha davrgacha bo`lgan tabobat borasidagi eng mukammal qo'llanma hisoblanadi. Bu ensiklopedik kitob tibbiyotning hamma sohalari, jumladan, anatomiya, fiziologiyaetiologiyasi, propedevtika, tashhis qo'yish va davolash profilaktikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar yoritilgan so'nggi yirik asari bo'lib, unda olim falsafaning asosiy masalalarini qisqa iboralarda bayon etgan.Ushbu asarda kasalliklarning kelib chiqishi sabablari, sog'lom turmush tarzi, oddiy dori va ularning ta'siri, bosh miya, ichki va harakat a'zolari yuqumli xastaliklar, o'sma,dori turlari va ularning tayyorlanishi xususida yoritib berilgan<sup>14</sup>. Bu asarning arabcha matni Leydenda (1892 y), Qohirada (1947 y), Tehronda (1864 y), Istanbulda (1873 y) nashr etilgan. U fransuz (1951 y) va fors tillarida ham bosilgan (1937 y,1954 y). Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta'limoti va Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, birbiriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat. Olamda mavjud barcha narsalar ikkiga bo'linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud eng irodali, qudratli, dono tangridir. Qolgan narsalar imkoniyat tarzida mavjud bo'lib, tangridan kelib chiqadi. Zaruriy vujud bilan imkoniy vujud munosabati sabab va oqibat munosabatidir. Bu jarayonda olamdagি hamma narsalar emanatsiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklida mavjud bo'lgan aql, jon, jism, ular bilan bog'liq osmon sferalari kelib chiqadi. Bular hammasi

<sup>13</sup>Ahadova M. Donishnoma // Fan va turmush.4-son, 1980 yil 3 aprel. - B. 12.

<sup>14</sup>Yodgorov E. Ibn Sino merosi: zamonaliviy tibbiyot va amaliyot//Marifat.11-son, 2015 yil 21 noyabr. - B. 7.

substansiya (javhar) bo'lib, yana borliqda aksidensiya-narsalarning belgilari, rangi, hajmi, xillari mavjud. Jism shakl va moddadan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir. Uning o'zi boshqa tayin jismlarning asosidir. Narsalarning moddiy asosi hech qachon yo'qolmaydi. Materiyaning eng sodda bo'linmas shakli 4 unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o'zaro birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar shaklan o'zgarishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo'lgan 4 unsur yo'qolmaydi, abadiy saqlanadi. Ibn Sino fikricha, avval tog'toshlar, so'ng o'simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida boshqa jonzotlardan aqli, tafakkur qilish qobiliyati va tili bilan farq qiluvchi inson vujudga kelgan. Hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shug'ullanish insongagina xosdir. Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. Sezgida narsahodisalarning ayrim, tashqi belgilari, tayin tomonlari bilinsa, aql ularning mohiyatini, ichki tomonlarini abstraksiyalashtirish va umumlashtirish yordamida bila oladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Ibn Sino tushunchasida bilimlarni chuqur o'rganish orqali xudoni bilish mumkin degan fikr yotadi. U mavjud bilimlarni egallagan insongina haqiqiy musulmon bo'la oladi, deb tushunadi. Ibn Sino mantiqni ilmiy bilishning, mavjudotni o'rganishning ilmiy usuli deb biladi. "Mantiq,-deb yozadi, Ibn Sino-insonga shunday bir kuchda beradiki, bu kuch yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi". U mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini chuqur o'rgandi, mantiq fanini Forobiydan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantirdi. Ibn Sino o'z davridagi tabiiy fanlarning rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari "Kitob ash-shifo" ning tabiiy fanlarga oid qismida bayon qilingan.<sup>15</sup> Olimning ba'zi geologik jarayonlarga oid mulohazalari hozirgi ilmiy nazariyalarga juda yaqindir. Uningcha, vulqonlar aslida tog' paydo bo'lishi va zilzilalar bilan bog'liq. Tog' paydo bo'lishining o'zi esa 2 yo'l bilan bo'ladi:

<sup>15</sup> Ирисов А. "Хаким ибн Сино". - Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 42.

- 1) kuchli yer qimirlashi vaqtida yer qobig'ining ko'tarilishi;
- 2) suv orqali va havoning asta-sekin ta'siri natijasida chuqur jarliklar paydo bo'lib, natijada ularning yonida balandlik hosil bo'lib qolishi.

Zilzilaning paydo bo'lishiga ham bir necha sabablar bor. Ularning biri gazsimon yo olovsimon bug' bo'ladi. Mana shu bug' harakatga kelib, yerni qimirlatadi. Suvlarning yer ostiga sizib kirishi, tekis yer chetining o'pirilishi, ba'zida tog' cho'qqilarining kuch bilan qulashi ham zilzilaga sabab bo'ladi. Olim fikricha, yer yuzasining ma'lum qismi bir mahallar dengiz tubi bo'lgan, zamon o'tishi bilan geologik jarayon oqibatida suv xavzalari o'rni o'zgargan. Bir vaqtlar dengiz bo'lib, hozir quruqlikka aylangan yerlarda dengiz hayvonlarining toshqotgan qoldiqlari saqlanib qolgan<sup>16</sup>. U bunday yerlarga Kufa, Misr va Xorazm yerlarini kiritadi. Ibn Sino mineralogiya (ma'danshunoslik) sohasida ham salmoqli ishlar qilgan. U minerallarning original tasnifini taklif etdi. Unga ko'ra, barcha ma'danlar 4 guruhg'a: toshlar, eriydigan jismlar (metallar), oltingugurtli yonuvchi birikmalar va tuzlarga bo'linadi. Bu tasnif to 19asrgacha deyarli o'zgarishsiz saqlanib keldi. Ibn Sinoning geologiya va mineralogiyaga oid fikrlari uning "Alaf'ol valinfiilot" ("Ta'sir va ta'sirlanish") asarida ham uchraydi.

Ibn Sino boshqa tabiiy fanlar qatori kimyo bilan ham shug'ullangan va unga oid asarlar ham yozgan. Bu asarlarini u turli davrda yozgan bo'lgani uchun ularda Ibn Sinoning kimyoga bo'lgan munosabatining evolyusion o'zgarib borishi yaqqol aks etgan. Uning kimyo sohasida aytgan fikrlari o'sha davrdagi alkimyo uchun nihoyatda ilg'or edi. Ibn Sino 21 yoshida, ya'ni ilmiy faoliyatining bo'sag'asida metallar transmutatsiyasiga, ya'ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo'l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va mutaqaddim kimyogarlarning kitoblari ta'siri ostida "Risola assan'a ilalbaraqiy" ("Baraqiyga atab san'at (alkimyo) ga doir risola") nomli kichik asar yozgan.<sup>17</sup> Lekin 30 yoshlarga borib, ilmiy tajribasi ortgan yosh olim bu sohadagi urinishlarning zoye ketishiga amalda ishonch hosil qiladi va "Risola aliksir" ("Iksir haqida risola") asarida kimyoviy

---

<sup>16</sup> Каримов И , Каримова С. “Тиббий ўгитлар”. - Т.: Мехнат, 1991. - Б. 35.

<sup>17</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”. - Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 55.

yo'l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha bildiradi. 40 yoshlarda yozishga kirishgan “Kitob ash-shifo” da esa kimyogarlarning transmutatsiya<sup>18</sup> sohasidagi barcha harakatlari behuda ekanligini nazariy jihatdan isbotlashga urindi. Uning fikricha, o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan har bir metall o'zicha alohida bir modda bo'lib, kimyogarlar o'ylagandek bir yagona metallning turi emas. U oltinning alohida bir elementligini bilmasada, uni narsalardan yasab bo'lmasligini ham anglagan edi. Olimning bu nazariy mulohazalari o'rta asr kimyosining ilmiy kimyoga o'sib o'tishida muhim rol o'ynadi. Ibn Sino botanika masalalaribidanham juda ko'p shug'ullandi, chunki tabobatda ishlatiladigan dorivor moddalarining aksariyati o'simliklardan olinadi. U “Kitob ash-shifo” ning “annabot” (“O'simliklar”) qismida o'simliklarning turlari, paydo bo'lishi, oziqlanishi, o'simlik a'zolari va ularning vazifalari, ko'payishi hamda o'sish sharoitlari haqida yozadi, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ham ish olib boradi. Ibn Sino yoshlidan astronomiyaga qiziqqan va bu qiziqish umrining oxirigacha saqlangan. U 8 ta mustaqil risola hamda “Kitob ash-shifo” va “Donishnoma” ning riyoziyot qismlarida astronomiyaga alohida boblarni bag'ishlagan. Ptolemeyning “Almagest” ini qayta ishlab, shuning asosida amaliy astronomiya bo'yicha qo'llanma yaratgan. Ibn Sino Jurjon shahrining geografik uzunligini o'z davri uchun butunlay yangi bo'lgan usul — oyning eng baland nuqtasini kuzatish orqali aniqlab bergen. Beruniy “Geodeziya” asarida bu usulning to'g'riliqi haqida gapirib, uni faqat Ibn Sino nomi bilan bog'laydi. Bu usul Yevropada 500 yil dan keyin (1514 yil) astronom Verner tomonidan yangidan kashf qilindi. Matematika sohasida Ibn Sino Yevklidning “Negizlar” kitobini qayta ishlab, unga sharh va to'ldirishlar kiritdi, geometrik o'lchamlarga arifmetik terminologiya qo'lladi, “Son” tushunchasi doirasini “Natural son” dan ancha kengaytirdi. She'riyat sohasida ham Ibn Sino sezilarli iz qoldirdi. U o'zining ayrim tibbiy asarlari (“Urjuza”) ni rajaz vaznli she'rda yozgan. Bundan tashqari, uning bir nechta

<sup>18</sup> Transmutatsiya- (мутация организм у ёки бу белгиларининг ўзгаришига олиб келувчи генетик материалнинг тўсатдан табиий ёки сунъий ирсий ўзгариши бўлиб, Трансмутация сунъий равишда, яъни, инсон таъсири остида ирсий ўзгаришлар жараёнидир. Бу ҳақда тўлукроқ қаранг. Ўзбекистон Республикаси Миллий энциклопедияси М харфи –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, - Б. 877. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.

falsafiy qissalari ham borki, ular keyinchalik fors – tojik adabiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Olimning fors tilida yozgan bir necha g'azal va qit'alari, 40 dan ortiq ruboiylari mavjud. Uning she'riy merosi qisman rus va o'zbek tillarida nashr etilgan. Ibn Sino musiqa bobida Forobiy ilmiy yo'naliшини davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Musiqa haqidagi "Javome' ilm ul – musiqiy" ("Musiqa ilmiga oid to'plam") asari "Kitob ash-shifo" ning bir qismi bo'lib, har biri bir necha bobli 6 bo'limdan iborat. "Annajot", "Donishnoma"larda musiqa haqida kichik bo'limlar mavjud, "Tib qonunlari", "Risolai ishq" va boshqa musiqaning ayrim masalalari haqida fikr yuritgan. O'z davri musiqasining barcha muammolarini bayon etgan: nag'ma, bo'd (interval), lad tizimlari, iyqo, kuy yaratish, musiqa asboblari va hokazolar. Yevropada keyinchalik "sof tizma (tovushqator)" atalgan musiqaviy tuzilmani birinchi bo'lib asoslagan. Ibn Sino musiqiy go'zallik haqida mukammal ta'limotni ilgari surib, musiqani hamohanglikning eng kamolga yetgan turi deb biladi. Ritm masalalariga sharqning boshqa musiqa nazariyotchilari singari aruz badiiy tizim bilan bog'liq holda qaraydi. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Inson nutqiy ohanglari rivojlanishi natijasida musiqa paydo bo'lganligi haqidagi nazariyasi hozirgi zamонави musiqa nazariyalariga mos keladi. O'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vositalar sirasiga kiritgan.

Ibn Sino ilm asoslarini o'rganishning ahamiyati xususida dasturiy yo'l-yo'riqlar yaratgan buyuk mutafakkirlar jumlasidandir. Uning fikricha, bilimga ehtiyoj ham obyektiv zaruriyatni ongli tushunish bilan bog'liq ma'naviyat, ya'ni anglashilgan maqsadlar tizimidir. Inson o'zining ehtiyojni qondirish, biror muammoni hal etishda aql-idroki, zakovati, irodasi, bilim boyliklaridan foydalanadi. Insonning amaliy faoliyati ilm asosida amalga oshadi. Demak, bilim, iste'dod, tajriba, malaka asosida shakllangan ma'naviyat inson faoliyatiga o'ziga xos yo'naliш, imkoniyat beradi. Ibn Sino ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidan iboratligini ta'kidlab shunday degan edi: "Bilim deb, narsalarni idrok qilishga aytildi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu bu dalillar ochiq

-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat donishmandlik deyiladi". Ibn Sino "Axloq haqida risola" nomli asarida iffat, qanoat, sahiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, sirni saqlay bilish , vafodorlik, kamtarlik, adolatliylik kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ta'rif beradi. Axloqiy qadriyatlar Ibn Sino fikricha qotib qolgan quruq aqidalar emas. Inson axloqining yaxshi-yomon bo'lishi shart-sharoitlarga, ijtimoiy muhitga, qolaversa, kishining o'ziga ham bog'liqdir.

Chunki mutafakkir talqinicha, yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, ta'lim, tarbiya,odatlanish natijasida vujudga keladi, yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Ayni paytda, odamlarning yaxshi va yomon bo'lishiga hokimiyatning ta'siri ham bor deb ta'kidlaydi.

## **1.2. Ibn Sino ijodida insonparvarlik g'oyalari**

Buyuk qomusiy olim, o'z davridagi mavjud fanlarning hammasida chuqur iz qoldirgan mashhur olim Abu Ali ibn Sinoning ijodiy faoliyati juda xilma-xil va rang-barangdir. U birinchi navbatda dunyoda buyuk tabib sifatida mashhur bo'lishi bilan birga olimlar nazarida buyuk faylasuf sifatida ham hurmatlidir. Ibn Sino nomini dastlab butun dunyoga taratgan va uni abadiylashtirgan asarlari uning inson uchun birinchi navbatda amaliy jihatdan zarur bo'lган tibbiy asarlaridir. Lekin Ibn Sino mashhur tabibgina bo'lib qolmagan edi, u o'z davrining buyuk mutafakkiri, keyingi asrlar fani va adabiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsata olgan buyuk siymo ham edi. Uning meditsina, biologiya, geologiya va boshqa aniq fanlar sohasidagi asarlari hamda falsafa va adabiyot bobidagi katta xizmatlari uni haqli ravishda jahon fani va madaniyatining ajoyib namoyandasi darajasiga ko'targan edi. Uning falsafiy va estetik g'oya hamda qarashlari esa jahon madaniyati erishgan zo'r ilmiy va nazariy yutuqlar qatoriga kirgan edi. Haqiqatan ham olim ijodida fan va adabiyot uzviy ravishda birlashib ketib, o'zining barakali mahsulini bergen edi. Ibn Sino nazmiy asarlar yozish bilan bir qatorda ko'pgina nasriy adabiy asarlar ham yozadi. Ibn Sino o'zining har bir asarida insonlarni bilim va ma'rifat chirog'ini yoqishga, har bir masalaga ilmiy aqliy yondashishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, fan hamda madaniyatni egallashga, xullas insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o'zida aks ettirib, mujassamlashtirishga va inson degan ulug' nomni yanada yuqori ko'tarishga chaqiradi<sup>19</sup>. Uning "Hayy ibn Yaqzon" ("Uyg'oq o'g'li Tirik"), "Risolatut Tayr" ("Qush risolasi"), "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi" asarlari mutafakkir olimning adabiy ijodida katta urin tutadi. Ibn Sinoning "Hayy ibn Yaqzon" povesti keyinchalik ispan yozuvchisi Ibn Tufaylning shunday nomli romaniga ijodiy turtki bo'lib xizmat qiladi. Garchand Ibn Sino bilan Ibn Tufayl yaratgan asarlarning syujeti boshqa-boshqa bo'lsa ham, ular mazmun jihatdan bir-biriga yaqin turadi. "Risolatut Tayr" esa Farididdin Attor va Navoiyning shu nom va mavzuda asar yozishlariga zaminlik vazifasini o'taydi.

---

<sup>19</sup>Karimov B. Ibn Sino ma'rifat va jaholat haqida//Buxoro mavjlari.2-son, 2013 yil 12 fevral. - B. 8.

Ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” qissasi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining kitob fondida saqlanmoqda. Ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” qissasi hajm jihatidan kichik bo’lishiga qaramay, o’z oldiga katta tarbiyaviy masalalarni qo’yadi. povestda sabot va matonatli, chidamli va intizomli, sofdil va ajoyib bir yigit— Ibsol obrazini hamda har qanday yo’l bilan bo’lsa-da, o’zining iflos maqsadini amalga oshirishga tirishadigan, bu yo’lda hech narsadan toymaydngan salbiy bir ayol obrazini beradi. Asarning mazmuni, kompozitsiyasining yo’nalishi va obrazlari Ibn Sinoning usta hikoyanavisligidan darak beradi. Ibn Sinoning bu asari bilan ma’lum bir tabaqa kishilarini tarbiyalashga uringanligi sezilib turibdi. Salomonning xotini obrazi feodal saroy muhitiga xarakterli bo’lgan tiplardan biri ekanligi ko’rinib turibdi.

Ibn Sino peyzajlarni, tabiat holatharining tasvirlarini ham e’tiborsiz qoldirmaydi. U peyzajlardan juda ustalik bilan foydalanadi<sup>20</sup>. Umuman aytganda, Ibn Sinoning bu qissasi o’rta asr adabiyotining ajoyib namunasi hisoblanadi. Uning o’zi ham bu asariga alohida ahamiyat beradi. Shuning uchun “Ishorot” degan asarida: “Agar qulog’ingga chalingan (so’zlar) va eshitganlaring orasida “Salomon va Ibsol”qissasi senga yoqib qolsa, shunda sen bilginki, agar sen irfon ahlidan bo’lsang, Salomon sening uchun to’qilgan masal, Ibsol bo’lsa ma’rifatdagi darajang uchun to’qilgan masaldir. Undan keyin, agar kuching yetsa, bu ramzni yechgin”, deb yozadi-ki, bu muallifning mazkur asarga chindan zo’r e’tibor bergenligini asosli ravishda tasdiqlaydi. Bunda Ibn Sino kishiga qarata, sen Salomon singari o’zingga o’zing ega bo’l, o’zingga shoh bo’l, sening ma’rifiy darajang esa Ibsolday bo’lsin, odobli, axloqli, intizomli, sofdil bo’l” yolg’onchi va johillarga nisbatan rahmsiz bo’l, shiddatli adolatparvar bo’l, demoqchi bo’ladi.

Ibn Sino “Tadbir al-manozil”<sup>21</sup> asarida uy va oila tadbirlariga oid masalalarni quyidagicha izohlaydi. Ayollar hamma yerda erkaklarning munosib hamrohi, sodiq do’sti va oilaning mustahkam bo’lishi hamda bolalarni tarbiyalashda uning eng

<sup>20</sup>Karimov B. Ibn Sino ma’rifat va jaholat haqida.//Buxoro mavjhlari. 2-son, 2013 yil 12 fevral. - B. 8.

<sup>21</sup>Farmonov R. Ibn Sino ta’limotida tarbiya.// Buxoro oqshomi .8-son, 2016 yil 21 aprel.- B. 3.

yaqin yordamchisi bo'lishi kerak.

Ibn Sino Yusuf haqida ham qissa yozadi. Bu qissani yozishdan olim "Salomon va Ibsol" qissasidagi sofdil yigit Ibsol obrazi kabi Yusuf obrazi orqali ham kishidagi eng oljanob fazilatlarni targ'ib qilish va bunga undash maqsadini ko'zda tutadi. Chunki Yusuf yaxshi xulqli, chidamli va chiroyli bo'lishiga qaramay, o'z husniga berilib ketmaydi. Ibn Sino Yusuf haqidagi qissasida Ibsol obrazidagi mavjud oljanob fazilatlarni Yusuf obrazida yanada takomillashtirib, o'z ideallarini yanada chuqurroq va ravshanroq ko'rsatib beradi.

Ibn Sinoning axloqqa oid asarlaridan yana biri uning "Tibbiy poemasi"dir. Asarda muallif ovqatlanish va uqlash gigiyenasi, nafsoniy kayfiyatlar, sog'liqni saqlash, bolalar tarbiyasi haqida bahs etadi<sup>22</sup>.

Ibn Sinoning "Risolat ut Tayr" ("Qush risolasi") asari uning adabiy ijodi va dunyoqarashini bilishda muhim asarlardan hisoblanadi. Bu asar, aslida, ramz-ishoralar bilan yozilgan bo'lib, olimning tarjimai holini bilishda katta ahamiyat kasb etadi. "Risolat ut Tayr" asarining kirish qismi olimning do'stlik haqidagi nasihatlaridan iborat. Bu yerda u odamlarni bir-biri bilan ahil, do'st bo'lib yashashga, do'stlikning qadriga etishga, uning to'la ma'nosini yaxshi tushunib, uqib olishga chaqiradi. Og'zida do'stman, deb, amalda do'stining holidan xabar olmaydigan, nomigagina do'st bo'lib yuradigan kishilarni qoralaydi. Yozuvchi qissani qush tilidan ,bayon qiladi. Garchi bu asarning qahramonlari qushlar bo'lsa-da, aslida ularning zamirida insonlar, real hayot kishilari yotadi. Asarni sinchiklab o'qib chiqqan har bir kishi uni muallifining kechmishidan hikoya qilgan ramziy ishoralar ekaniga amin bo'ladi. Chindan ham, bu asardagi ramz-ishoralardan olimning o'z davridan shikoyati, tortgan jabr-u jafo va alam-sitamlari, tinch-osuda turmushga yetisha olmagani, sargardonlikda hayot kechirgani yaqqol sezilib turadi. Boshqacha aytganda, bunda Ibn Sino o'z tarjimai holini qisqacha eslatib o'tadi. Olim hukmron sinfning o'zaro olib borgan kurashlari natijasida o'zining shaharma-shahar kezishga majbur bo'lganligini, ko'pgina asarlari va ilmiy faoliyati ta'qib ostiga olinganini o'z asariga ramziy yo'llar bilan singdirib yuboradi. Xulosa qilib

<sup>22</sup> Farmonov R. Ibn Sino ta'limotida tarbiya.// Buxoro oqshomi .8-son, 2016 yil 21 aprel.- B. 3.

aytganda, olimning “Qush risolasi” o’rta asr badiiy falsafiy adabiyotining ajoyib namunalaridandir. Ibn Sinoning bu xildagi asarlaridan yana biri “Hayy ibn Yaqzon” (“Uyg’oq o’g’li Tirik”) qissasidir. Qissadagi Uyg’oq o’g’li Tirik odamlarni kishilarning fe'l-atvorini, tabiatini chuqurroq tushunish uchun farosat ilmi — mantiqni bilishga da'vat etadi. Negaki, bu ilm, Ibn Sino iborasi bilan aytganda, foydasi naqd ilmlardan bo'lib, kishining didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi, bilgan-bilmaganlarini o'ngiga keltirib, uni tartibga soladi. Bunda Ibn Sino eski falsafadagi aqliy obyektlarni moddiy narsalar sifatida gavdalantiradi. Instinkt, shahvatga berilish, g'azab, ochko'zlik, yalqovlik, hasad, zulm va o'g'irlilik kabi kishida bo'ladigan ayrim xususiyatlar aqliy obyektlar turiga kiradi. Qissada mana shu obyektlarning foydali va zararli tomonlari, ular bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligi haqida fikr yuritiladi. Allomaning buyuk xizmatharidan biri shundaki, u yaxshilik va yomonlik, burch, or-nomus va baxt – saodat kabi etika kategoriyalarini o'zidan oldingi barcha axloqiy talimotlarni har tomonlama o'rganish asosida o'rganib chiqdi. Olimning “Sevgi haqida qissa” asarida qayd qilinishicha dunyodagi barcha mavjud narsalar o'z tabiatiga ko'ra yetuklik sari intiladi. O'z tabiatiga ko'ra yetuklik sari bunday intilish yaxshilikdir<sup>23</sup>.

Ibn Sino o'zining ko'p qirrali ijodida fanning turli tarmoqlarini qamrab ola bildi. Bu unga tabiatni yaxshiroq tushunishga, insonga va uning tabiatiga yanada chuqurroq kirib borishga imkon berdi. U o'z umrida ko'padolatsizliklarni, darbadarlikni ko'rди, har xil tabaqa kishilari bilan yaqindan munosabatda bo'ldi. U elementar fanlardan tortib to inson ruhigacha bo'lgan jarayonni ziyraklik bilan kuzatdi, insonning og'ir turmushi va ahvolini ko'rib, uning dunyoqarashi kamol topdi. O'rta asrning og'ir sharoitida umr kechirganiga, bir joyda qat'iy qo'nim topolmay, shaharma-shahar kezib yurganiga qaramay, keng fikrga ega bo'ldi, shuhrat qozondi. Olimni jahonshumul shuhrat qozonishga olib kelgan sabablardan biri shu bo'ldiki, u o'z davrining eng ilg'or, eng progressiv g'oyalari ergashib, bu ilg'or va progressiv g'oyalarni o'z fikri va xulosalari bilan yanada boyitdi. Bu

<sup>23</sup> Jumaboyev Y. O'rta Osiyolik alloma sabog'i.// Fan va turmush 6-son, 1980 yil 25 iyun. - B. 14.

esa hol fan va adabiyot tarixida benihoya katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki buyuk.mutafakkirning falsafa va adabiyot sohalariga bag'ishlangan asarlari Sharq va G'arbning juda ko'p atoqli kishilariga samarali ta'sir ko'rsatdi. Ibn Sino ijodidagi ajoyib xususiyatlardan biri shuki, u o'z asarlarida davrining juda ko'p ilg'or g'oyalarini barkamol aks ettira oldi. Garchi uning o'zi ba'zi falsafiy masalalarda idealist bo'lib, ko'pgina ilg'or fikrlari diniy idealistik qobiqda berilgan bo'lsada, olim aytmoqchi bo'lган asosiy fikr va maqsadlar o'z davriga nisbatan ancha ilg'or edi. Bu uning ko'p masalalarda asosli fikrlar aytganidan darak beradi. Sheriyat sohasida ham Ibn Sino sezilarli iz qoldirdi. U o'zining ayrim ilmiy asarlarini rajaz vaznli sherda yozgan.Bundan tashqari uning falsafiy qissalari, bir nechta qit'a va ruboiylari ham borki,ular keyinchalik fors-tojik va o'zbek adabiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi<sup>24</sup>.

Darhaqiqat, Abu Ali ibn Sino haqiqiy insonnarvar kishi sifatida inson aqlining har tomonlama rivojlanishiga, tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishongan edi. Ana shuning uchun ham olim odamlarni bir-biri bilan do'st-inoq bo'lib yashashga, kishilarni tubanlikka olib boradigan adovat o'chog'ini buzishga, birodarona ahil, hamjihat turmush kechirishga chaqiradi. Odamlar shu xilda sofdil va samimiyl bo'lsa, bir-biri bilan do'st-inoq bo'lib yashasa, bir yoqadan bosh chiqarsa, har qanday mushkullarning oson, har qanday qiyinchiliklarning bartaraf bo'lishnga va haqiqat sirlarining ochilishi mumkinligiga qattiq ishonadi. Ana shuning uchun ham olim odamlarga qarata shunday xitob qiladi:

“Ey birodarlar! Bir-biringiz bilan samimiyl do'st bo'lib, haqiqatni ochinglar. Har bir kishi o'z birodari uchun ko'nglidagi samimiylidandan to'sqinlik pardasini ochib tashlasin. Shunday qilinglarki, birodarlarining sizlardan o'zi bilmagan ba'zi narsalarni o'rgansin va yana boshqalari bo'lsa ba'zi narsalarni o'rganib, o'zini kamolotga etkazsin”<sup>25</sup>.

Ibn Sinoning tarjimai holidan shu narsa bizga ayonki, uning “ al-Birr va-l-ism”

<sup>24</sup> Majidov N. Tabiblar sultonii// Fan va turmush 8-son, 1980 yil 10 avgust. - B. 4.

<sup>25</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”.-Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 42.

ya’ni “Yaxshi va yomon xislatlar” nomli etikaga oid asari bo’lgan. Yagona nusxadagi bu asarni alloma Urganchda yozgan va uni o’z qo’shnisi Abu Bakr Barakiy ismli kishiga sovg’a qilgan. Lekin u shunchalik ziqna odam bo’lganki, bu asarni hech kimga foydalanishga ruxsat etmagan va nusxasini ham olib qoldirmagan. Natijada bu nodir asar bizgacha yetib kelmagan<sup>26</sup>.

Ibn Sino chin ma’rifatparvar olim va adib edi. U insonlarni fan va madaniyat, bilim va ma’rifat o’chog’ini yoqishga, ilm yo’lida og’ishmay yuksaklik va kamolot sari intilishga, har bir masalaga ilmiy, aqliy yondashishga, rostgo’y, vijdonli bo’lishga, xullas insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o’zida mujassamlashtirishga va inson degan ulug’ nomni yanada yuqori ko’tarishga chaqiradi. Olim o’zi da’vat etgan yo’liga namuna o’laroq o’z davridagi mavjud fan taraqqiyotining barcha bosqichlarni mukammal egallaydi. Ibn Sino o’z asarlarida insonlar o’rtasidagi do’stlik va birodarlikka alohida ahamiyat berib, odamlarni bir-birlari bilan do’stinoq bo’lib yashashga, pastkashlikka olib keladiganadolatni yo’qotishga chaqiradi. Har bir inson hayotda o’z do’stiga mehribon bo’lish, qo’lidan keladigan yordamlarni ayamaslik, do’stidagi nuqson va kamchiliklardan yuz o’girmaslik, aksincha uni yo’qotishga harakat qilish kabilar ibn Sinoning asarlarida keng o’rin olgan. Ibn Sino talimotiga ko’ra, kishi do’st tutinishining uch xil yo’li bor. Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo’lishiga qaramay, kishi o’z do’stini falokatdan qutqarishini, ikkinchidan, g’oyaviy yakunlik va dunyoqarashlar umumiy bo’lgan chinakam doimiy do’stlikni va uchinchidan, kishining mansabi, puli yoki mavqeyiga qarab o’zining manfaatini qondirish ko’zda tutilgan do’stlik bo’ladi. Olim chin do’stni ko’zguga taqqoslaydi. Chunki ko’zgu kishining haqiqiy borlig’ini ko’rsatadi. Kishi do’stidagi nuqsonlarni o’z vaqtida ochib tashlamasa, ro’y-rost gapirmasa, o’z do’stlik burchini unutgan bo’ladi. Abu Ali ibn Sinoning komil insonni jismonan hamda ma’nan sog’lom qilib tarbiyalash g’oyasi, axloq, ta’lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari ming yillar ilgari yozilgan bo’lsa ham bugungi kunda farzandlarni axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shuni

<sup>26</sup> Jumaboyev Y. O’rta Osiyolik alloma sabog’i://Fan va turmush 6-son, 1980 yil 25 iyun. - B. 14.

aytish kerakki, Abu Ali ibn Sino o’z hayoti va faoliyatida doimo ezgulikka intilgan komil inson bo’lgan. Ibn Sinoning ma’naviy masalalarga doir fikrlariga e’tibor qaratadigan bo’lsak, uning fikricha, “ma’naviy poklik dil musaffoligini ta’riflaganda insonning o’z fe’l-atvoridagi yomon illatlardan forig’ bo’lish kerak deb hisoblaydi. Shu bilan birgalikda, barkamollikka erishish yo’llarini quyidagicha tahlil qilgan: inson ruhiy olamining o’z asl maqsadi badnafslik, ta’magirlik va takabburlik kabi yomon illatlardan saqlanishdir”<sup>27</sup>. Buyuk mutafakkir ma’naviyatga inson hayotiy faoliyatining barcha ko’rinishlari birligi va yaxlitligini alohida ko’rsatib beruvchi me’zon sifatida qaraydi. Bunday qarashlar ayniqsa, bugungi kunda yoshlarimizning ta’lim-tarbiya masalasida yaqqol ko’zga tashlanadi va bu masalada jiddiyroq yondashishni talab qiladi. Shundagina yosh avlodni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va bilim olish kabi ruhda tarbiyalash mumkin.

Ibn Sino o’zining “Uyun al- hikma” asarida ham axloqqa oid fikr mulohazalarini bayon etadi. Insonlar kamtar, irodasi kuchli va tejamkor bo’lishi kerak deydi<sup>28</sup>. Ibn Sinoning “Ro’zg’or yuritish ilmi” asari ta’lim va tarbiyaga bag’ishlangan maxsus asardir. Jumladan, uning oila haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: oila boshlig‘i, uningcha o’z farzandlari qaramog‘lariga g‘amxo‘r bo‘lmog‘i, ularning yaxshi xulqli, ust boshlari but, qorinlari to‘q bo‘lishi uchun harakat qilmog‘i, ularga tarbiya berishda xotini bilan ittifoq bo‘lib ish ko‘rmog‘i lozim. Insonning yuksak xislatlaridan biri g‘amxo‘rlik va e’tiborlilik. O‘ziga yaxshi insoniy xislatlarni shakllantiruvchi kishi uchun hech narsa qo‘rqinchli emas, u olg‘a qarab qadam qo‘yishi, o‘zini-o‘zi tarbiyalagach, boshqalarning tarbiyasi bilan ham shug‘ullanishi mumkin. Axloq aql tomonidan boshqarilishi kerak. Kishi o‘zida yaxshi xislatlarni tarbiyalamoqchi bo‘lsa, avvalo o‘zidagi salbiy jihatlarning nimadan iborat ekanligini bilishi, ya‘ni o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaray bilishi lozim. Agar ayrimlari nazardan chetda qolsa, bu xuddi butunlay davolanmagan kasallikka o‘xshaydi. Buyuk mutafakkir mazkur fikrlari bilan insonni qayta tarbiyalashni, unga tarbiya berish nihoyatda muhim ekanligi haqidagi nuqtai

<sup>27</sup> Irisov A. “Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari”. - Dushanbe.: Irfon, 2008. - B. 23.

<sup>28</sup> Farmonov R. Ibn Sino ta’limotida tarbiya. //Buxoro oqshomi 8-son ,2016 yil 21 aprel. - B. 4.

nazarni asoslab bergen. Abu Ali ibn Sinoning jamiyat haqidagi fikrlari ham ahamiyatlidir. Alloma fikricha, jamiyat paydo bo'lishining eng asosiy sababi-odamlarning hayotiy faoliyatlari va ularning o'z naslini ustuvor davom ettirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarini yaratishdan iborat. Faylasufning andishalariga ko'ra ustuvor va barkamol yashash uchun odamlar bir-birlari bilan birlashib, o'zaro hamkorlikda bo'lib,yordamlashib, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning almashinuvini ta'minlash imkoniyatini yaratishga majburdirlar. Alloma fikriga ko'ra, odil jamoa- jamoa a'zolarining o'zaro yordamlashish va hamkorlik me'yori asosida barqaror bo'la oladi. Jamoa tartibi, yashash qoidalariga rioya qilinishi va ularning buzilmasligi uchun jamoa a'zolarining faoliyatlari ustidan nazorat qilinishi hamda nazorat qiluvchilar tayinlanishi lozim va o'rnatilgan ijtimoiy qoidalar yuqoridan pastgacha aniq bo'lmosg'i kerak.

## **II –bob. Ibn Sinoning tibbiyot fani rivojiga qo’shgan hissasi**

### **2.1. Ibn Sino tabobati va bu borada yaratilgan ilmiy asarlar ko’lami.**

Abu Ali ibn Sinoning tabobatga qiziqib qolishiga dastlab nima sabab bo’lgan-buni aniq aytish qiyin.Lekin uning o’z tilidan yozib qoldirgan tarjimai holida aytishicha,Ibn Sino qo’liga tushgan barcha tibbiy kitoblarni mutolaa qila boshlaydi. Buni olimning o’zi shunday hikoya qiladi. “Keyin tib ilmi bilan shug’ullanishni istab qoldim va unga bag’ishlangan kitoblarni o’qishga tushdim.Tib aslida qiyin ilmlardan emas, shu sababdan men qisqa muddat ichida bu sohada shunday yutuqqa erisha oldimki, hatto fozil tabiblar ham menga kelib, mendan tib ilmini o’qiydigan bo’ldilar. Bemorlarga ham qatnar edim. Erishgan tajribalarim natijasida menga davolash eshiklari shunday keng ochildiki, uni ta’riflab bo’lmaydi”<sup>29</sup>. Ibn Sinoning tabobatda qilgan ishlari uning nomini bir necha asrlarga shu fan sohasi bilan chambarchas bog’ladi. Olimning tabobat taraqqiyotidagi buyuk xizmati shundaki, u o’zigacha o’tgan turli xalq namoyandalari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to’plangan ma’lumotlarni saralab, muayyan bir tartibga soldi va ularni o’z tajribalari bilan boyitgan holda ma’lum nazariya va qonun-qoida asosida umumlashtirdi. Ibn Sinoning tabobat sohasida qilgan ishlari o’sha davr tabobatini bir necha asrlarga ilgarilatdi va ayrim sohalarda hatto hozirgi zamon tibbiyotiga yaqinlashtirdi ham. Olim yashagan davrda bu sohada antik olimlarning , xususan, Gippokrat, Galen, Dioskorid va boshqalarning ta’limoti ustuvor edi. Ibn Sino ham o’z tibbiy faoliyatida ularning nazariy qarashlari va amaliy ko’rsatmalariga tayandi, va ularni Hindiston, Xitoy, O’rta Osiyo, Sharq olimlarining hamda o’z tajribalari va bilimlari asosida rivojlantirdi va boyitdi. Ibn Sinoning daho tabib sifatida shuhrat qozonishining asosiy omillaridan biri — uning tib nazariyasini, xususan, anatomiya — inson gavdasi tuzilishini mukammal bilishligidir.Ibn Sino o’zi foydalangan va o’qigan asarlarining mualliflarini “Tib qonunlari” kitobida keltirib o’tgan. Bular: Buqrot ya’ni Gippokrat, Dioskorid, Galen, Oribaziy, Pavel

---

<sup>29</sup> Ирисов А. “Хаким ибн Сино”.-Тошкент.: Ўзбекистон.1992. –Б.9.

kabilardir. Hindiston tabiblaridan esa Charaka bir necha bor qayd qilingan. Sharq tabiblaridan esa Abu Bakr ar-Roziy tilga olingan<sup>30</sup>. Alloma tibbiyotning o'zidan oldingi ming yillik taraqqiyotiga yakun yasabgina qolmay, uni yangi, yuqori bosqichga ko'taradi. Hatto bu fanning keyingi asrlarda erishgan bir qancha yutuqlarini oldindan ko'ra bildi<sup>31</sup>. Ibn Sinoning tibbiyotga oid 30 dan ortiq asarlari bizgacha yetib kelgan bo'lib, ularning orasida "Qonun" kabi tibbiy ensiklopediya bilan bir qatorda tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan turli hajmdagi "Urjuza fit-tib" ("Tibbiy urjuza"), "Aladviyat alqalbiya" ("Yurak dorilari"), "Daf" almadorr alkulliya analabdon alinsoniya" ("Inson badaniga yetishgan barcha zararlarni yo'qotish"), "Kitob alqulanj" ("Qulanj haqidagi kitob"), "Maqola finnabz" ("Tomir urishi haqida makrla"), "Risola filboh" ("Shahvoniq quvvat haqida risola"), "Risola fi tadbiri almusofirin" ("Safardagilarning tadbiri haqida risola"), "Risola fi xifz assihha" ("Sog'liqni saqlash haqida risola"), "Risola fis sikanjubin" ("Sikanjubin haqida risola"), "Risola filfasd" ("Qon olish haqida risola"), "Risola filhindabo" ("Sachratqi haqida risola") kabi risolalar ham bor. Ibn Sino birinchilardan bo`lib tabiiy muhit va inson hayoti o`zaro munosabatlarini har tomonlama tahlil qilish zaruratini fahmladi. Inson hayoti, uning salomatligi yoki xastalik holati organizmga tashqi muhit ta'sirini ifodalaydi. Bunday sharoitga ob-havo, turar joy, yashash joyining xususiyatlari, yil fasllari va ularning o`zgarib turishi va hokazolar kiradi. Odam organizmi faoliyati uchun muhim bo`lgan omillardan Ibn Sino yashash joyining geografik va meteorologik xususiyatlari, havosining toza va sofligi, xo`jalikda ishlatiladigan suvning ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlaydi. Olim kishi organizmining turli fiziologik holatlarini ob-havoning o`zgarishiga bog'laydi. Meteorologik hodisalarining tez-tez o`zgarib turishi, joylarda ob-havoning beqarorligi Ibn Sinoni kishi organizmi bilan ob-havo nisbatini o`rganishga undadi. Muhitga nisbatan organizmning faolligi Ibn Sino tomonidan to`liq o`rganilgan edi. Organizm faolligi adaptatsiya -moslashish tushunchasi orqali ifodalanadi. Ibn Sino

<sup>30</sup> Каримов И , Каримова С. “ Тиббий ўгитлар”. - Т.: Мехнат, 1991. - Б. 11.

<sup>31</sup> Karimov U. Ming yoshli ulug' bir siymo//Fan va turmush 8-son, 1980 yil 2 avgust. - B. 15.

ilmiy terminologiyasida “mizoj” tushunchasi organizmning o`ziga xos tabiat sifatida ishlataladi. Natijada ko`pincha bitta sabab turli odamlarda turlicha kasalliklarni, yoki turli vaqlarda turli kasalliklarni keltirib chiqargan bo`ladi. Biror-bir sababning ta'siri kuchli yoki kuchsiz odamda, ta'sirchan yoki kam ta'sirchan odamda bir xil bo`lavermaydi. Organizmning doim o`zgarish va harakatda bo`lgan tashqi muhitga moslashuvi borasida jismoniy mashqlarning ahamiyati kattadir. Ular tufayli organizm chiniqadi, muhitdagi o`zgarishlarga chidam va bardoshli bo`ladi. Olim jismoniy mashqlarni faol,o`rtacha va sust mashqlar deb tasniflaydi. Ibn Sino amaliy tabobatni ikkiga bo`ladi. Bularidan biri, sog`lom tananing holati, ya’ni salomatlikni saqlashga qaratilgan tadbirlar bo’lsa, ikkinchisi esa nosog’ tananing holatidir. Bunda organizmning o’zini normal holatiga qaytarishni ko’zda tutadi. Bu qismini Ibn Sino davolash bo’limi deb ataydi<sup>32</sup>. Ibn Sino asarlarida, tabiatshunoslikning muhim muammolari ilgari surildi. Olim ushbu muammolarni o`sha davr sharoiti va tabiatshunosligi holati imkoniyatlari darajasidan bir qancha pog`ona yuqori turgan holda hal qilishga intildi va ko`p hollarda bunga erishdi.Ibn Sino tibbiyotning boshqa sohalari singari sog`liqni saqlashni tashkil qilish,uning maqsadi,inson salomatligini saqlashdagi tutgan o’rni haqida juda qimmatli fikrlarni aytib o’tgan. Gippokrat inson salomatligi uning xulq-atvoriga bog’liq ekanligini e’tirof etgan bo’lsa, Ibn Sino sog`liqni saqlash ishini san’at deb bilgan. Sog’liqni saqlash tadbirlarining asosiy maqsadi har xil foydali tadbirlarni qo’llab sog`lom, uzoq umr ko’rishni ta’minlashdir. Ibn Sinoning ta’limotida salomatlikni saqlash uchun quyidagi sog`lom turmush tarzi tadbirlarini amalaga oshirish kerakligi aytilgan. Bular:

- 1.Badantarbiya tadbiri
- 2.Ovqatlanish tadbiri
- 3.Inson mijozini mo’tadil holatga keltirish
4. Inson organizmini chiqindilardan tozalash
- 5.Tarbiya haqidagi tadbirlar
- 6.Yilning turli fasllaridagi tadbirlar.

<sup>32</sup> Qodirov A, Soipov U. “Abu Ali ibn Sino o’rta osiyolikbuyuk medik- olim”. –T.: “Meditina”, 1980. - B. 91.

Ibn Sino bu tadbirlarni yangi tug'ilgan chaqaloqdan boshlab to qarilikkacha bo'lgan barcha davrda qaysi usul va yo'llar bilan amalgalashini batafsil bayon etgan. Ibn Sino badantarbiyani yil fasllariga qarab, ya'ni qish faslida kechga yaqin, bahor va kuzda tushga yaqin, yozda esa erta tongda bajarish kerakligini ta'kidlagan. Inson kundalik hayoti davomida ovqatlanish tartibini bir me'yorda saqlash uchun quyidagi tadbirlarga rioya qilish kerakligini aytib o'tgan: Ovqatning asosiy qismi meva va sabzavotlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. To'yib ovqat yemaslik,qishda issiq,yozda sovuq va iliq ovqat yejish lozimligi, ovqat tanovulidan so'ng sovuq suv ichmaslik. Ovqatdan so'ng spirtli ichimliklar ichmaslik kerak, chunki spirtli ichimliklar oshqozzonning harakatini tezlashtirib, ovqat parchalanmasdan o'tib ketishiga sabab bo'ladi. Sog'lom turmush tarzini tashkil etishda har bir inson gavda tuzilishi va mijoziga to'g'ri keladigan ovqat tanlab iste'mol qilsa me'yorini saqlay olsa,buyuk alloma ta'kidlaganidek, inson o'z salomatligini saqlagan va kasalliklarni oldini olgan bo'ladi. Shuningdek buyuk hakim parhezga ham alohida e'tibor bergen. Kasallik keltirib chiqaruvchi sababiga qarab, parhezni tavsiya etgan. Zamonaviy tibbiyotda esa Pevzner bemorlarning sutkalik energetik ehtiyojlarini inobatga olgan holda va ulug' allomaning ko'rsatmalari asosida 15 ta parhez stolini tavsiya etgan<sup>33</sup>. Buyuk mutafakkir olim Abu Ali ibn Sinoni odam anatomiyasini fanining asoschisi deb, aytish mumkin. Allomaning bu boradagi izlanishlari odam anatomiyasini o'rghanish va yangiliklarni kashf qilish bilan chegaralanmay, tizimlar, a'zolar, ularning qismlarining anatomiyasini hamda fiziologiyasini aniqlay olgan va juda sodda hamda aniq qilib tushuntirib bergen. Ibn Sinoning tibbiyotga doir asarlari bir necha asr mobaynida tibbiyot fanining nazariy va amaliy negizi bo'lib keldi. Ibn Sino o'z zamonasida asab va ruhiy kasalliklar bilimdoni sifatida shuhrat qozondi. Ma'lumki nerv sistemasi kasalliklarini Ibn Sino usulida aniqlash va davolash yo'li keyingi asrlarda ham saqlanib qoldi<sup>34</sup>. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asosiy merosi "Tib

<sup>33</sup> Tillayeva Sh, Raxmatova D, Nurboyev F, Raupova D. Ibn Sino sog'lom turmush tarzi asoschisi.// - Buxoro.: "Barkamol avlodni tarbiyalash va yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim,fan,ishlab chiqarish aloqadorligi:muammo va yechimlar" ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 2015 yil 17 yanvar. - B. 284.

<sup>34</sup> Majidov N. Tabiblar sultonii// Fan va turmush 8-son, 1980 yil 10 avgust. - B. 4.

qonunlari” bo`lib, bu kitob o`sha davrgacha tabobat borasidagi eng mukammal qo`llanma hisoblanadi. “Qonun” haqida gap borar ekan, avvalo bu asar qachon yozilgan, degan savol tug'iladi. Ibn Sinoning o`zi bu haqida hech narsa demaydi. Ammo yigirma besh yil undan ajralmay birga bo`lgan eng yaqin shogirdi va do’sti Abu Ubayd Juzjoniyning guvohlik berishicha, Ibn Sino “Qonun” ning birinchi kitobini Jurjonga kelgandan keyin, ya’ni 1012-yildan boshlab yozishga kirishadi. Albatta “Qonun” kabi katta hajmli qomusiy xarakterdagи ilmiy asarni yozish uchun oldindan tayyorgarlik ko’rib kelingan bo’lishi kerak. Shuning uchun Ibn Sino ham hali Buxoro kutubxonasida mutolaa qilib yurgan yillari va keyinchalik Xorazmda istiqomat qilganchog’laridanoq material yig’ib yurgani shubhasizdir. “Qonun”ning qolgan kitoblarini Ray va Hamadonda ekanida yozganligi haqida ma’lumotlar bor.<sup>35</sup>

Ibn Sinoning mazkur asari ta‘lim-tarbiya, tibbiyat, uning dorishunoslik, davolash sohalari bo‘yicha tengi yo‘q manba hisoblanadi. Bu ensiklopedik kitobda tibbiyotning barcha sohalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar yoritilgan. “Tib qonunlari” taxminan 1012-1024-yillarda yozilgan deb hisoblanadi. Ibn Sino o‘z asarini yozib tamomlaganidan keyin 150 yil o`tgach, Gerard Kremonskiy (1114-1187) uni birinchi marta lotin tiliga tarjima qiladi. Bu tarjima asl nusxadagi mazmun va ifodani o`zida to`la saqlab qola olmagan bo`lsa-da, taxminan 7 asr davomida g`arb mamlakatlarida tibbiy bilimlarning birdan-bir qo`llanmasi sifatida xizmat qildi. Abu Ali ibn Sino ijodi shu bilan qadrlanadiki, u “Tib qonunlari” kitobida faqatgina o‘z izlanishlari bilan chegaralanmay, balki o`zidan oldin o`tgan olimlarning shu a’zo, yoki uning qismiga, yo shu masalaga munosabatini bildirib, bu savollarga o`zi aniq javob bergen. Shu bilan birga, Ibn Sino bu ilmiy merosni o`zining puxta kuzatishlari va amaliyot ishlarida qozongan yutuqlari bilan boyitgan. Ibn Sino o`zining mashhur asari “Tib qonunlari” kitobida kishi organizmi holati sabablarining tasnifini beradi. Bunday sabablari uning fikricha, ovqatlanish, har xil ichimliklar, havo, suv, mamlakat, turar-joy, kasb, urf-odatlar, tan va ruh harakati, osoyishtaligi, jins, yosh, hayotda odat tusiga kirmagan hodisalarining yuz berishi va

<sup>35</sup> Каримов И, Каримова С. “Тиббий ўйтлар”. - Т.: Мехнат, 1991.-Б. 16.

boshqalardan iboratdir. Organizmning turli ko`rinishda sodir bo`ladigan holatlari yuqorida aytilgan sharoitlarga bog`liqdir. Ibn Sinoning ushbu qomusiy asari beshta kitobdan iborat:

Birinchi kitob- tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida ma'lumot beradi. Tabobat ilimning ta'rifi, uning vazifalari, xilt va mijoz haqidagi ta'limot bayon qilinadi. Bundan tashqari odam tanasining “oddiy” a'zolari-suyak, tog'ay, asab, arteriya, vena va pay haqida ma'lumotlar bor. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ko'rinishlari, turkumlari hamda ularni davolashning umumiy usullari keltiriladi. Ovqatlanish, hayot tarzi va hayotning hamma bosqichlarida sog'liqni saqlash haqidagi ta'limot batafsil bayon qilinadi.

Ikkinci kitob-o'sha davr tabobatida qo'llanilgan dori-darmonlar haqida zaruriy ma'lumotlar bayon qilingan mukammal majmuadir. Unda o'simlik, hayvon va ma'danlardan olinadigan 800 dan ortiq dori-darmon ta'rifi, ularning davolik xususiyatlari va qo'llanish usullari bayon qilingan. Ibn Sino tavsiya qilgan ko'plab dorilar farmakologiyadan mustahkam o'rin olib, hozirgi kunda ham qo'llanilmoqda.

Uchinchi kitob-inson tanasining boshidan tovonigacha bo'lgan a'zolarida yuz beradigan “xususiy” yoki “mahalliy” kasalliklar haqida ma'lumot beradi. Boshqacha qilib aytganda, bu kitob xususiy patologiya va terapiyaga bag'ishlangan. Unda boshmiya, ko'z, quloq, burun, og'iz bo'shlig'i, til, tish, milk, la, tomoq, o'pka, yurak, ko'krak, qizilo'ngach va oshqozon kasalliklari, so'ngra jigar, o't pufagi, qorajigar, ichak, orqa yo'l, buyrak, erkar va ayollarning jinsiy a'zolari kasalliklari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

To'rtinchi kitob- kishi a'zolaridan birortasiga xos bo'lмаган “umumiy” kasalliklarga bag'ishlangan. Bunday kasalliklarga turli isitmalar, toshmalar, yaralar, kuyish suyak sinishi va chiqishi, asablarning jarohatlanishi, bosh suyagi, ko'krak qafasi, umurtqa va qo'l-oyoqlarning shikastlanishi kiritilgan. Shuningdek,

mazkur asarda uzoq cho'ziladigan va o'ta yuqumli kasalliklar: chechak, qizamiq, moxov, vabo va quturish haqida so'z boradi. Kitobning maxsus bo'limi inson husni va chiroyini saqlashga va pardoz-andoz vositalariga bag'ishlangan<sup>36</sup>. Jumladan, Ibn Sino sochni to'kilishdan saqlaydigan hamda haddan tashqari semirib ketish yoki ozib ketishning oldini oladigan vositalarni tavsiya qiladi.

Beshinchi kitob- farmakopeya bo'lib, unda murakkab tarkibli dori-darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari bayon qilingan<sup>37</sup>.

Ibn Sino dorishunoslik sohasida chuqur tadqiqotlar olib borgan. U antik olimlarning farmatsiyasi asosida musulmon Sharqida paydo bo'lgan yangi farmatsiyaning shakllanishiga yakun yasadi. Tabobatda sano, kofur, rovoch, tamrhindiy kabi dorilarning ishlatilishi, asal o'rnida ko'p dorilarning qand asosida tayyorlanishi ham Ibn Sinoning xizmatidir. Uning dorivor o'simliklarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash usullari hozirgi dorishunoslikdagi usullarga juda yaqindir. Tabiiy dorilar bilan bir qatorda Ibn Sino birinchilardan bo'lib kimyoviy usulda tayyorlangan dorilarni ham ishlatgan. Kasallikning turiga qarab avval sodda, so'ng murakkab tarkibli dori bilan davolagan. Eng muhimi, u oziq ovqatlarning shifobaxsh ta'siriga katta ahamiyat berib, davolashni shunday mahsulotlardan boshlagan. Dori tayinlashda bemorning mijoz, yoshi, iqlim sharoitini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sino farmatsiyasi juda puxta o'yangan farmakologik tadqiqot usuliga asoslanganligi bois o'rta asr Yevropa farmatsiyasidan ancha o'zib ketdi va zamonaviy dorishunoslikka yaqinlashdi. Olim ishlatgan dorilarning bir qanchasi hozirgi farmakopeyalardan mustahkam o'rinn olgan. Ibn Sinoning dorishunoslikka qo'shgan hissasi nihoyatda salmoqlidir. U taklif etgan dorilar asrlar davomida keng ishlatilib kelingan. Ularning ko'pi hozir ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q<sup>38</sup>. Allomaning anatomiya sohasidagi izlanishlari odam anatomiyasini o'rganish va yangiliklarni kashf qilish bilan chegaralanmay, tizimlar, a'zolar, ularning qismlarining anatomiyasi hamda

<sup>36</sup> Каримов И , Каримова С. “Тиббий ўгитлар”. - Т.: Мехнат, 1991. - Б. 19.

<sup>37</sup> Каримов И , Каримова С. “Тиббий ўгитлар”. - Т.: Мехнат, 1991. - Б. 19.

<sup>38</sup> Majidov N. Tabiblar sultonii// Fan va turmush 8-son, 1980 yil 10 avgust. - B. 4.

fiziologiyasini aniqlay olgan va juda sodda hamda aniq qilib tushuntirib bergen. Ko'plab tibbiyot sohasi bilimdonlari Abu Ali ibn Sinoning anatomiya fani yaratilishi va taraqqiy etishi borasidagi buyuk xizmatlarini tan olishgan. Abu Ali ibn Sino odam anatomiyasining suyaklar bo'limi haqida yozar ekan, u suyaklarning tuzilishini aniq ko`rsatib, ularning tuzilishi suyaklarning vazifalariga bog'liqligini keng yoritib bergen. "Tib qonunlari" asarining 1-jildidagi osteologiya bo'limi 30 ta fasldan iborat bo'lib suyaklar tuzilishi va vazifalari hozirgi zamon tushunchalariga to'liq mos keladi. Qonning shakliy elementlari suyak ichidagi qizil ilik sohasida yetiladi. Bu vazifalardan 3 tasi bundan 1000 yil ilgari Abu Ali ibn Sino tomonidan aniqlangan. Ibn Sino suyaklarning shakli haqida yozar ekan, ularning naysimon, yassi va aralash shakllarini yoritib, ularga misollar ham keltirgan. Bir qancha suyaklarning tuzilishi Galendan mukammalroq va Vezaliydan aniqroq qilib yozilganligi tan olingan. Ibn Sino umurtqa pog`onasini ta'riflar ekan ularning sonini aniq keltirgan, umurtqalarning vazifalari hozirgi zamon tushunchalariga to`la mos berilgan. Shuningdek, u umurtqalarning bir-biridan farqlarini aniqlagan. Aristotel qovurg`alarni 8 ta deb bergen bo`lsa, Ibn Sino odamda 12 juft qovurg`a borligi, ularning soni erkak va ayollarda bir xil ekanligini birinchi bo`lib yozgan. Chanoq suyaklari tuzilishi borasida X asrgacha aniq fikr bo`lmagan. O'tirg`ich suyagini Ruf— chanoq-son bo`g`imi sifatida ta'riflasa, Polluks — yassi suyak bo`rtig`i sifatida ta'riflagan. Gippokrat bu terminda son suyagini tushungan, Abu Ali ibn Sino jahonda birinchi bo`lib chanoq suyaklari tuzilishini aniq tasvirlab bergen. Abu Ali ibn Sino odam anatomiyasining kalla suyaklari bo`limi haqida yozar ekan, uning tuzilishini aniq tasvirlab, ularning shakli va vazifalarini keng yoritib bergen. Kalla suyaklarini yuz va miya qismlariga ajratib o`rganish hozirgi o`quv dasturlarida ham shu shaklda saqlanib qolgan. Kalla suyaklarining yuz qismi suyaklari tuzilishini aniq ko`rsatib, ularning shakli va vazifalari keng yoritilgan. Burun suyaklarini alohida ekanligini ta'kidlagan. Kalla suyaklari haqida Abu Ali ibn Sino yozgan jumlalarni o`qiganda beixtiyor bu narsalar hozirgi tibbiyot oliygohlarida talabalar o`qiyotgan kitoblarga mos kelishini ko`rib odam hayratlanadi. Ibn Sinoning ta'biricha, inson yiliga ikki

marotaba bahor va kuz oylarida profilaktik ravishda zuluklar yordamida qon tomirlarini tozalab tursa, gipertoniya, yurakning ishemik kasalliklari singari bir qator kasalliklarning oldini olgan bo'ladi, chunki zuluklar ajratgan girudin moddasi antikoagulyant sifatida qonni ivishdan saqlab, qon yig'ilib qolishining oldini oladi. Doimiy ravishda qonni ivishini oldini oluvchi dori vositalarini istemol qilish oshqozon ichak sistemasiga katta zarar yetkazadi. Ibn Sinoning bu qarashlari hozirgi davr rivojlangan tibbiyotida o'z tasdig'ini topmoqda. "Tib qonularining" muhim tomonlaridan yana biri shundaki, uning aksariyat bo'limlarida Ibn Sino kasalliklarning yangi belgilarini tasvirlagan, bir qator kasalliklarning klinik ko'rinishini aniq va batafsil ta'riflab bergen<sup>39</sup>. Jahon ilm-fani rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan bu durdona asar hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Abu Ali ibn Sinoning bu asari tibbiyot tarqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilab bergen. Ushbu asarda buyuk olim amaliy tibbiyot va farmokologiya sohalarining eng muhim usullariga asos solgan<sup>40</sup>. Ibn Sino tomir urishini aniqlashda tengi yo'q bilimdon edi, shu yo'l bilan ko'pgina kasalliklarni bemalol aniqlar edi<sup>41</sup>. Ibn Sino "Tib qonunlari" kitobini shunday so'zlar bilan boshlaydi: "Tib shunday ilmki, kishilarning salomatligini saqlash va kasalliklarni davolash maqsadida odam tanasini sog' va kasallik chog'ida o'rganadi"<sup>42</sup>. Yuqorida aytib o'tkanimizdek, ushbu asarda farmakologiya sohasiga doir nodir ma'lumotlar ham bor. Kitobda 811ta turli-tuman o'simliklar, hayvonot va mineral moddalar ko'rsatib o'tilgan. Ayni paytda Ibn Sino dori-darmon bilan davolashdan tashqari, osiyishtalik, iqlim almashtirish, parhez, gimnastika, uqalash, turli xil moylarni surkash, qon olish, hammomga tushish, loy yordamida davolash kabi tadbirlarni ham tavsiya etgan<sup>43</sup>.

"Qonun" 1012-1024-yillarda yozilgan bo'lib, uning qo'lyozma nusxalari tezlik bilan jahon bo'ylab tarqala boshlaydi<sup>44</sup>. Qisqacha qilib aytganda, "Qonun" o'zining

<sup>39</sup> Majidov N. Tabiblar sultonii// Fan va turmush 8-son, 1980 yil 10 avgust. - B. 4.

<sup>40</sup> Yodgorov E. Ibn Sino merosi: zamonaviy tibbiyot va amaliyot// Marifat.11-son, 2015 yil 21 noyabr. - B. 7.

<sup>41</sup> Majidov N. Tabiblar sultonii// Fan va turmush 8-son, 1980 yil 10 avgust. - B. 4.

<sup>42</sup> Qodirov A, Soipov U. "Abu Ali ibn Sino o'rta osiyolikbuyuk medik- olim". – T.: "Meditina", 1980. - B. 90.

<sup>43</sup> Majidov N. "Tabiblar sultonii",// "Fan va turmush" jurnali. 8-son, 1980 yil 10 avgust. - B. 5.

<sup>44</sup> Karimov U. Ming yoshli ulug' bir siymo.// Fan va turmush. 8-son, 1980 yil 2 avgust. - B. 15.

asosiy qo'llanma va darslik sifatidagi qiymatini 500 yildan ortiqroq vaqtgacha saqlab qoldi. Bu kitobga bo'lgan talab shunchalik zo'r ediki, XV asrda kitob bosish ixtiro etilgach, birinchi bosalgan kitoblar ichida "Qonun" ham bor edi. Birinchi marta u Uyg'onish davridagi gumanizm markazlaridan biri bo'lgan Strasburg shahrida 1473-yilbosilib chiqadi<sup>45</sup>. "Qonun"ga sharh bergan ba'zi olimlarimizni eslatib o'tish darkordir. XII asrda Faxriddin Roziy, XIII asrda Muhammad Naxchivoni va Ibn an-Nasafiy, XIV asrda Qutbiddin Sheroziy va Abdullo Oqsaroiy, XIX asrda esa Abdurahmon Misriy va Ibn Hakim Abdulshofixonlar ushbu asarga sharhlar yozganlar<sup>46</sup>. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Botanika bog'ida ajoyib giyohlar maydoni bor. Bu yerda "Abu Ali ibn Sinoning shifobaxsh giyohlar hududi" barpo etilib, O'rta asrning mashhur allomasi Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" da tilga olingan barcha dorivor o'simliklar to'plangan. "Ibn Sino Tib qonunlari" asarida shu dorivor giyohlarning 393 turini ta'riflab bergan<sup>47</sup>.

---

<sup>45</sup> Каримов И, Каримова С. "Тиббий ўгитлар". - Т.: Мехнат, 1991. - Б. 18.

<sup>46</sup> Каримов , Каримова С. "Тиббий ўгитлар". - Т.: Мехнат, 1991. - Б. 17.

<sup>47</sup> Jamolov K. Buyuk olim kashf etgan giyohlar. // Shofirkon haqiqati. 2-son, 1980 yil 5 mart. -B. 4.

## **2.2 Ibn Sino merosining o'rganilishi va butun jahon olimlari tomonidan e'tirof etilishi.**

Biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng Imom Ismoil al -Buxoriy, Abu Iso Muhammad at -Temiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy ibn Abu Bakr ar-Rishtoniy, Muso Xorazmiy, Ahmad al- Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va shu qatori Abu Ali ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimizning nomlari va asarlarini qaytadan kashf etdik. Musulmon Sharq Renessansining bиринчи to'lqini vujudga kelishi sharoitida Markaziy Osiyo mutafakkirlari shakllantirgan ta'limotlarda ilmiy tafakkur tarzining ajoyib namunalari ishlab chiqilgan. Xususan ratsionalistik tafakkur tarzining rivojiga Markaziy Osiyo olimlaridan Beruniy, Xorazmiy hamda Ibn Sino kabi boshqa allomalar ham katta hissa qo'shganlar. Ilm sohasida Ibn Sino eksperimental tadqiqot va determinizm tamoyiliga asoslangan ilmiy ratsionallik tarafdori bo'lgan<sup>48</sup>. Dunyo tiibiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim,faylasuf va tabib Abu Ali Ibn Sinoning bashariyatga qoldirgan boy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish, xususan uning ma'naviy-ma'rifiy merosi asosida vatandoshlarimizni, ayniqsa yoshlarni tarbiyalash, bu umumbashariy merosdan chet el fuqarolarini xabardor etish, insonparvarlik xayriya ishlarini amalga oshirish bizning muhim vazifalarimizdan hisoblanadi. Ibn Sino o'zining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Sharqning Umar Xayyom, Abu Ubayd Juzjoniy, Nasriddin Tusiy, Fariduddin Attor, Ibn Rushd, Nizomiy Ganjaviy, Faxriddin Roziy, at Taftazoniy, Nosir Hisrav, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Ulug'bek, Bedil, Bahmanyor ibn Marzbon kabi mutafakkir va olimlari o'z asarlarida Ibn Sino ta'limoti va ilmiy g'oyalarini davom ettirdilar. Yevropada allomaning asarlari XII-asr dan boshlab lotin tiliga tarjima qilinib, universitetlarda o'qitala boshlandi. Yevropaning mashhur faylasuf va tabiatshunos olimlaridan Jordano Bruno, Gundisvalvo, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Albert fon Bolshtedt, Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante va boshqalar Ibn Sino ning ilg'or fikrlaridan o'z

<sup>48</sup> Sultanova G. Ibn Sino ta'limotida klassik ilmiy tafakkur tarzining shakllanish xususiyatlari// Imom Buxoriy saboqlari 4-son, 2014 yil 22 aprel. - B. 5.

ijodlarida foydalandilar va uning nomini zo‘r hurmat bilan tilga oldilar. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy, diniy, sotsiologik va boshqa qarashlaridan foydalanishning jamiyatimizdagи madaniy- ma’rifiy sohalarda ilgari bosilgan qadam bo’lib hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino birinchi tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratgan va u hanuz o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Shu sababli Ibn Sinoning ma’naviy jasorati, ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida yoshlарimizga tayanch bo’lib xizmat qiladi. Ibn Sino tibbiyoti zamonaviy meditsinaga asos bo’lib kelmoqda. Jumladan, Abu Ali ibn Sino odam anatomiyasining nevrologiya bo’limi haqida yozar ekan, nerv tizimining markaziy va periferik qismlardan iboratligini bundan ming yil oldin bilgan, bosh miya nervlari, bosh va orqa miya pardalari, bosh miya qorinchalari, miya tomirlarining tuzilishini keng yoritib bergen. Oradan besh asr o’tgach A. Vezaliy hidlov traktlari haqidagi Abu Ali ibn Sinoning qarashlari to`g`ri ekanligini tasdiqlaydi. Orqa miya nervlari Abu Ali ibn Sino tomonidan aniq belgilab berilgan bo`lib, orqa miya segmentlari 31 juftligini bundan 1000 yil oldin aniqlagan va ularning bo`yin, yelka, bel, dumg`aza hamda dum chigallarini hosil qilishini ko`rsatgan. K.M.Bikov 1950-yil “I.P.Pavlov fikrlari rivoji” mavzusidagi maqolasida: “Allaqachon shoirlar, faylasuflar va ruhshunoslar inson asab tizimini har taraflama o`rganib chiqishgan. Ular ichida Abu Ali ibn Sinoning yuksak xizmatlarini alohida ta’kidlash zarur” deb yozadi. Bu buyuk olimning asab tolalarini, ularning joylashuvi va vazifalarini o`rganish, hamda kelajak avlodlarga qoldirish uchun qilgan mehnatiga berilgan xolis baho edi. Kasallikni davolashda Ibn Sino shaxsiy gigiyena, uyqu va jismoniy mashqlarning ahamiyati kattaligini uqtirgan. Uning bir kasallikni boshqa bir kasallikni chaqirish yo’li bilan davolash usuli diqqatga sazovordir. Masalan, u tutqanoqni davolashda to’rt kunlik isitma bilan og’rishni foydali deb biladi. Avstriyalik psixiatr Y. Vagneryaureg shunday usulni qo’llab, zaxm kasalligini bezgakni yuqtirish orqali davolagani uchun 1927 -yilda Nobel mukofotiga sazovor bo’lgan. Umurtqanинг qiyshayishini Ibn Sino o’zi ixtiro qilgan yog’och moslama yordamida tuzatgan. Bu usulni XV asrda fransuz tabibi Kalo qayta kashf etgan. Suyaklarni gipslash usuli ham Ibn Sino tomonidan keng qo’llangan, lekin u ham

keyinchalik unutilib, yevropalik tabiblar tomonidan 1852-yil da amaliyotga yangi ixtiro sifatida qaytarilgan. Hozirda ko'z jarrohligida qo'llanayotgan usullarning qariyb barchasi Ibn Sinoga ma'lum bo'lgan. Yomon sifatli saraton shishlari, qovuq toshlarini olish, istiskr, bavosirning operatsiyalari, bosh suyagining operatsiyasi Ibn Sino qo'llagan muolaja usullaridandir. Jarrohlikda anesteziya ya'ni og'riqni sezdirmaslik masalasiga ham Ibn Sino katta e'tibor bergen. Buning uchun u afyun, mingdevona, nasha va shu kabi narkotik ta'sirga ega bo'lgan dorilardan foydalangan. Tabobat tarixida birinchi bo'lib Ibn Sino vabo bilan o'latni farqlagan, yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni boshqalardan ajratgan holda saqlash kerakligini ta'kidlagan, meningit, oshqozon yarasi, sariq kasalligi, plevrit moxov, zaxm, qizamiq, suvchechak, kuydirgi kabi kasalliklarning belgilari va kechish jarayonini to'g'ri tasvirlab bergen. Quturish kasalligining ko'rinishlari, uning yuqumli xarakteri, bemorning bu kasallikdagi holatlarini juda to'g'ri aniqlagan. 1804-yilda yevropalik olim Sinke quturgan hayvonlarning so'lagi yuqumliligin tasdiqlagan. Ibn Sino o'tkir tashhischi edi. Uning ba'zi tashxis usullari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Perkussiyani, xususan, assit va meteorizmni farqlashda, istisqoni aniqlashda qo'llagan. Bu usul 600 yildan keyin venalik tabib Leopold Auenbrugger tomonidan qayta kashf qilinib, yana 50 yildan so'ng amaliyotga kirgan. Olim qon tuflash holatlari va nafas olish turlarini chuqr o'rganib, ulardan tashhisda foydalangan. Ibn Sino turli kasalliklarning differential diagnostikasida va gavdaning umumiyligi holatini aniqlashda tomir urishi, siydik va najasga qarab olinadigan belgilarga katta e'tibor beradi. Diabet kasalligini u siydikning holati, shu jumladan, undagi shirinlik muddasiga qarab tashxis qiladi. Diabet kasalligida siydikda qand muddasi bo'lishini 1775-yilda ingliz olimi Dobson aniqlagan. Allomaning ko'zning anatomiyasi, ko'rish jarayonining qanday sodir bo'lishi va unda ko'z qorachig'ining roli, ko'z muskollarining joylashishi xususida yozganlari zamonaviy oftalmologiyaga yaqindir. Asablar, qon tomirlar, mushaklarning tuzilishi va funksiyalari to'g'risida yozganlari anatomianing amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa amaliy anatomianing asoschisi deb tan olingen rus olimi I. Pirogovni Ibn Sinoning

izdoshi deyishga asos bo'ladi. Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O'zbekistonda maxsus ilmiy yo'naliш — sinoshunoslik vujudga keldi. "Tib qonunlari"ning lotincha tarjimasi to'liq holda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi. Jahon ilmi rivojiga mislsiz hissa qo'shgan ulug' yurtdoshimiz yubileyining nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri YUNESKO tomonidan 1980-yilda nishollanganligi Ibn Sinoning jahon ilmida qanchalar yuqori o'rinda turishining isbotidir. YUNESKO bosh konferensiyasining XX sessiyasida mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan barcha davlatlar Ibn Sino tavalludining 1000 yilligini munosib tarzda nisholladilar<sup>49</sup>. Yevropa olimlari Y. Bishmann, Y. Rus-ka Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez, L. Garde, A. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari M. Najotiy, A. Nodir, J. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsono'g'lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G'araba, M. Shohvardiy va boshqalar Ibn Sino ijodini o'rganishga ma'lum hissa qo'shdilar. Rossiyalik olimlardan Y. Bertels, A. Borisov, I. Braginskiy, S. Grigoryan, B. Petrov, B. Rozenfeld, V. Ternovskiy, A. Sagadeyev, M. Rojanskaya, Tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinor-shoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev, A. Bahovuddinov, Y. Nuraliyev bu yo'naliшning rivojlanishiga xizmat qildilar. O'zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. Karimov, Y. Zavadovskiy, A. Semyonov, M. Salye, P. Bo'lgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T. Qori-Niyoziy, I. Mo'minov, M. Xayrullayev, M. Boltayev, A. Axmedov, G. Matviyevskaya, V. Jumayev, N. Majidov, O. Fayzullayev, M. Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan. Ibn Sinoning ilmiy jihatdan asoslangan tarixan

---

<sup>49</sup> Abdullayev Y. Sino siyosini yod etib.// Fan va turmush 4-son, 1980 yil 5 aprel. - B. 15.

haqqoniy portreti rassom mo'yqalami bilan emas, balki mashhur sovet antropolog olimi, tarix fanlari doktori Mixail Mixailovich Gerasimov tomonidan 1956-yil yaratildi. Keyinchalik esa Andijon Davlat Meditsina institutining bir guruh olimlari tashabbusi bilan haykaltarosh E.Sokolova Gerasimovning tadqiqoti asosida Ibn Sinoning badiiy portreti gipsdan yasalgan tunj rang buyustini yaratdi<sup>50</sup>. O'zbekistonlik rassom S. Marfin 1968-yili Ibn Sinoning badiiy portretini ishladi. Ibn Sino haqida "O'zbekfilm" studiyasi ijodkorlari 1984-yil E. Eshmuhamedov va O. Agishevlar "Dahoning yoshligi" tarixiy-biografik badiiy filmni yaratdilar. O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney doimo yashil bo'lib turuvchi bir tropik daraxtni Ibn Sino sharafiga Avitsennia deb atadi. 1956-yil O'zbekiston yerida topilgan yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avitsennit deb ataladi. Buxoro shahar va Afshona qishlog'ida Ibn Sinoga haykal o'rnatildi, 2000-yilda Belgiyaning Kortreyk shahrida ham allomaga haykal qo'yildi. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. O'zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliy va o'rta bilim yurtlari, nashriyotlar, sanatoriylar, shifoxonalar, kutubxonalar, maktablar, ko'chalar, jamoa xo'jaliklari, turar joy mavzelariga Ibn Sino nomi berildi. Tojikistonda fan sohasida katta yutuqlarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi respublika davlat mukofoti ta'sis etilgan. 1999-yil O'zbekistonda Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tuzildi, hozirda "Ibn Sino" va "Sino" nomli xalqaro jurnallar nashr qilinadi. Ibn Sino tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan 1980-yil Tibbiyot fanlari doktori N.Majidovning "Ibn Sino asarlarida nerv sistemasi" kitobi hamda respublikamizning boshqa yetakchi shifokor olimlarining qator risolalari nashr etildi. Tibbiyot fanlari doktori V.Jumayevning "Ibn Sino jarrohligi va uning manbalari" kitobining ikkinchi qismi nashr etildi<sup>51</sup>.

Buyuk allomalar merosini o'rganish, asrash va boyitish -O'zbekiston Respublikasi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi

---

<sup>50</sup> Vorokin P. Ibn Sino portreti qanday yaratildi.//Guliston 6-son, 1979 yil 17 iyun. - B. 10.

<sup>51</sup> Abdullayev Y. Sino siyosini yod etib.// Fan va turmush 4-son, 1980 yil 5 aprel. - B. 15.

Prezidentining 1999-yil 6-yanvardagi “Ibn Sino xalqaro jamg’armasini qo’llab quvvatlash to’g’risida” gi Farmoniga asosan, yurtimizda Ibn Sino xalqaro jamg’armasi tashkil etildi. Bundan ko’zlangan maqsad dunyo tibbiyotiga ulkan hissa qo’shgan shifokor, olim va faylasuf Abu Ali ibn Sinoning boy merosini tiklash va yurt ravnaqi yo'lida rivojlantirishdan iboratdir. Ibn Sino jamoat fondi nafaqat mamlakatimiz, balki boshqa davlatlarda ham turli ilmiy- amaliy konferensiyalar, seminar va davra suhbatlarini o’tkazish tashabbuskori va tashkilotchisi bo’lib kelmoqda. Mazkur tashkilot butun dunyo miqyosida xalqaro darajada o’z nufuziga ega bo’lib, 2017-yil Fransiya tibbiyot akademiyasida bo’lib o’tgan an’anayiv “Ibn Sino xalqaro mukofoti” ni tasis etish to’g’risidagi yig’ilishida 7 nominatsiya bo’yicha jamoat fondi 1-o’ringa sazovor deb topildi. Abu Ali ibn Sinoning surati aks ettirilgan statuetka va maxsus diplom topshirildi. Jamg’armaning asosiy vazifasi Abu Ali ibn Sino ijodiy merosini chuqur o’rganish jarayonini tashkil etish, maktablar va oliy o’quv yurtlari uchun o’quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, buyuk olim asarlarini tartibga solish va ularni nashr etishga ko’maklashish, Ibn Sino kutubxonasini ochish, buyuk olim asarlari asosida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, kitoblar, risolalar, jurnal nashr etish, televidenie va radioda doimiy ishlab turadigan dasturlar ochish, Ibn Sino muzeyini barpo etish, Ibn Sinoning tibbiy va ilmiy-amaliy merosiga oid tadqiqotlar olib borishga, uning fandagi maktablarini o’rganishga ko’maklashish, xususan olimlarning bu boradagi ilmiy faoliyatini rag’batlantirish va muvofiqlashtirish, tibbiyot va dorishunoslik sohasidagi eng yaxshi ishlar uchun Ibn Sino nomidagi mukofot tasis etish va iste’dodli yoshlarni qo’llab-quvvatlash, chet el olimlari bilan aloqa o’rnatish, Ibn Sinoning ilmiy merosiga bag’ishlangan xalqaro simpozium, konferensiya, kongress o’tkazish, mamlakatning barcha viloyatlarida va xorijiy o’lkalarda fond bo’linmalarini tashkil etish, buyuk vatandoshimiz tavallud topgan tuproq- Buxoro shahrida har yili Ibn Sino xalaqaro ma’ruzalarini o’tkazib turishdan iboratdir. Xususan, 2005-yil Buxoroda alloma tavalludining 1025 yilligi munosabati bilan yubiley tantanalari bo’lib o’tdi. 20-22-noyabr kunlari Buxoro shahri markazida va alloma tug’ilgan Afshona qishlog’ida dunyoning 30 dan ortiq

mamlakatlaridan tashrif buyurgan olimlar ishtirokida anjumanlar bo'lib o'tdi<sup>52</sup>. Bundan tashqari, 2015-yil 21-noyabrda Buxoroda O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi, YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi , Ibn Sino jamoat fondi, Buxoro viloyati hokimligi va bir qator tashlikotlar hamkorligida tashkil etilgan tadbirda mamalakatimizdagi tibbiyat oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, talabalar,tibbiyat muassasalari mas'ul xodimlari, Germaniya, Fransiya,Hindiston, Rossiya va davlatlardan mutaxasislar ishtirok etdi.<sup>53</sup> Konferensiyada Abu Ali ibn Sinoning boy ilmiy merosi va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida atroflicha so'z yuritildi. Hindistonda buyuk olim Abu Ali ibn Sino ilmiy merosi katta qiziqish bilan o'rganiladi,-deydi Hindistondagi Ibn Sino akademiyasi prezidenti , professor Said Zullur Rexman.- Akademiyamiz Ibn Sino asarlarini chuqur tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Mening bu boradagi ilmiy izlanishlarim 200 dan ziyod maqolalarda jamlangan.Ibn Sino merosi misoli dengiz ostidagi xazinaga o'xshaydi-qancha chuqr sho'ng'isang, shuncha dur topaverasan.Biz Ibn Sino merosini o'rganayotgan va targ'ib qilayotgan jahonning o'nlab mamalakatlaridagi jamg'arma va markazlar bilan hamkorlikda ish olib boramiz. O'zbekistondagi Ibn Sino jamoat fondi bilan anglashuv memorandumi imzolangan. Bunday o'zaro ilmiy hamkorlik olib borilayotgan tadqiqotlar samaradorligini oshirishga xizmat qilayotir.Tibbiyat ilmining sultoni tug'ilgan Afshona qishlog'ida buyuk olimning memorial muzeyi tashkil etilgani, uning yonida tibbiyat kolleji faoliyat yuritayotgani nazariya bilan amaliyotning uyg'unligiday tuyildi menga<sup>54</sup> . Anjumanda Abu Ali ibn Sino ta'limotining bugungi zamonaviy tibbiyotdagi o'rni,olimning jigar kasalikklari gematologiya,xalq tabobati, jarrohlik borasidagi qarashlari, yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq mavzular xususida fikr almashildi. Konferensiya doirasida xorijlik olimlar ishtirokida amaliyotchi shifokorlar va talabalar uchun zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalari, kardiologiya, katarakta muammolari, xalq tabobati, jigar kasalliklarida transplantatsiya mavzulari bo'yicha davra suhbatlari

<sup>52</sup> Ergashov M. Qomusiy ilmlar sultoniga ehtirom// Buxoronoma 15-son, 2005 yil 19 noyabr. - B.10.

<sup>53</sup> Yodgorov E. Ibn Sino merosi: zamonaviy tibbiyot va amaliyot// Marifat.11-son, 2015 yil 21 noyabr. - B. 7.

<sup>54</sup> Yodgorov E. Ibn Sino merosi: zamonaviy tibbiyot va amaliyot// Marifat.11-son, 2015 yil 21 noyabr. - B. 7.

mahorat darslari va seminarlar tashkil etildi. 2014-yil 8-noyabrdada Buxoroda “Ibn Sinoning ilmiy-ma’naviy merosi-bashariyat uchun bebaho xazina” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo’lib o’tdi. Bu konferensiyada O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov o’z ma’ruzasida Buxoroda tug’ilib o’sgan tibbiyot ilmining sultonı Ibn Sinoning jahon ilm-fani, xususan, meditsina taraqqiyotiga qo’shgan bebaho xazinasini alohida ta’kidladi. “Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri” degan unvonga sazovor bo’lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarga alohida g’urur va ehtirom tuyg’ularini uyg’otishini qayd etdi<sup>55</sup>. 2017-yil 27-noyabrdada Buxoroda “Abu Ali ibn Sino ilmiy va madaniy merosining ahamiyati hamda uning ilm-fan tarqqiyotiga ta’siri” mavzusida anjuman bo’lib o’tdi. Ibn Sino jamoat fondi, O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vazirligi, Respublika Fanlar Akademiyasi, Buxoro viloyati hokimligi va Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti hamkorligida tashkil etilgan anjumanda AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Isroil, Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Turkiya va Qozog’istondan taniqli olimlar ishtirok etdi. Anjuman jahonda Avitsenna nomi bilan mashhur bo’lgan buyuk ajdodimizning ko’p qirrali ilmiy-madaniy merosini o’rganish, uning ta’limotidagi turli yo’nalishlarga oid maruzalarni muhokama qilish, xalqaro tajriba almashish, xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari mutaxassislari, olimlar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida tashkil etildi. Tadbirda qomusiy olimning tibbiyot bilan birga falsafa, kimyo, matematika, mantiq, fizika, musiqa, geologiya, jug’rofiya, astronomiya, she’riyat kabi sohalardagi samarali faoliyati Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Frengis Bekon va boshqa dunyo tan olgan buyuk daholar ijodiga ulkan ta’sir ko’rsatganligi ta’kidlandi. Anjumanda Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot, xalq tabobati, dorishunoslik rivojidagi o’rni, uning aniq va tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar ravnaqiga qo’shgan beqiyos hissasi, sog’lom turmush tarziga oid qarashlari, allomaning ilmiy merosida marifat va madaniyat tamoyillariga bag’ishlangan ma’ruzalar tinglandi. Abu Ali ibn Sino ilmiy merosida

<sup>55</sup> Yodgorov E. Abu Ali ibn Sino merosi-bebaho xazina.//Turkiston. 18-son, 2014 yil 8 noyabr. - B. 11.

falsafaga tegishli asarlar alohida o’rin egallaydi. Uning falsafiy qarashlari shakllanishida Arastu va Farobiyning ta’siri katta.

-Islom ta’limotiga asoslangan Ibn Sino falsafasi merosi umuminsoniy ahamiyatga ega,-deydi Isroildagi “Avitsenna” fondi raisi, professori Mixail Sach.- U o’zidan keyingi nafaqat islam, balki yahudiy va nasroniy falsafiy tafakkuriga ham katta ta’sir ko’rsatadi. Bunday o’lmas ta’limot davr chegarasini bilmaydi. Demak , u barcha zamonlarda ezgulikka, ilm –fan taraqqiyotiga, dunyonи anglashga xizmat qilaveradi. Ibn Sino merosini o’rganish va targ’ib qilishda Ibn Sino jamoat fondining faoliyati muhim ahamiyat kasb etayotir.

-Keyingi yillarda turli xorijiy tuzilmalar bilan hamkorlikni kengaytirmoqdamiz,-deydi Ibn Sino jamoat fondi boshqaruvi raisi N.Mahmudov.- Aniqsa, Fransiyadagi “Avitsenna” assotsiatsiyasi va Isroildagi “Avitsenna” fondi ishtirokida buyuk ajdodimizning nafaqat turli sohalardagi ilmiy merosini o’rganish, targ’ib qilish,balki xorijda bu boradagi tajribani ommalashtirishda samarali hamkorlik mustahkamlanib bormoqda. Konferensiyada jamoat fondi qoshida Ibn Sino merosini o’rganish bo'yicha xalqaro ishchi guruhi tashkil etish haqidagi tashabbusimiz xorijlik olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ayni paytda xalqaro hamkorlarimiz bilan tibbiyat sohasini isloq qilishda xorijda erishilgan eng yaxshi yutuq va tajribalarni o’rganish hamda milliy tajribamiz bilan uyg'unlashtirilgan holda, uni tatbiq etish bo'yicha muzokaralar olib bormoqdamiz.

Anjumanda buyuk mutafakkir ilmiy merosini targ’ib qilish, uning tavsiyalarini amalda tatbiq etgan bir guruh olim va tashkilotlarga 2017-yil Fransiyada ta’sis etilgan “Ibn Sino xalqaro mukofoti” topshirildi. Anjuman doirasida mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan Buxoro Davlat Tibbiyat Instituti talabalari uchun mahorat darslari o’tkazildi. Ibn Sino jamoat fondi bilan mazkur oliy o’quv yurti o’rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutida xorijiy olimlarning ma’ruzalari tinglandi. Anjuman ishtirokchilari Abu Ali ibn Sino tug'ilgan Afshona qishlog’ida bo’lib, uning haykali poyiga gul qo’ydilar va alloma hayot yo’li haqida hikoya qiluvchi muzey bilan tanishdilar.

## XULOSA.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida Ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy "uyg'onish"ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Evropadagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. U o'z davrida Sharq va Yevropada "Shayx ur-rais", "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Men bitiruv malakaviy ishimda shu mavzuni tanlar ekanman, avvalo Ibn Sino ijodiga o'zimning qiziqishim va ushbu buyuk zotning sermahsul ijodi nafaqat yurtimizda balki jahon miqiyosida tan olinganligi ham turtki bo'ldi. Men alloma hayot yo'li va ijodini o'rganish natijasida ko'plab bilimlarga ega bo'ldim. Ibn Sino avvalo buyuk hakim, tabib sifatida dunyoga mashhur. Uning tibbiyot rivojiga qo'shgan hissasi beqiyos ekanligi barchamizga ma'lum. Men allomaning tibbiyotga doir asarlarini o'qir ekanman, haqiqatdan ham o'z davrining bilimdon va tengi yo'q tabibi ekanligini bilib oldim. Bunday asarlariga besh qismdan iborat "Tib qonunlari", "Kitob ash-shifo", "Urjuza fit-tib" va shu kabi boshqa asarlarini misol keltirishimiz mumkin. Ushbu bitiruv ma'lakaviy ishni yozish davomida men Ibn Sinoning nafaqat bilimdon tabib balki, chin ma'noda insonparvar ijodkor, beqiyos shoir va faylasuf ekanligiga ham amin bo'ldim. Allomaning insonparvarlik borasidagi qarashlari aks ettirilgan "Hayy ibn Yaqzon", "Solomon va Ibsol" va "Yusuf qissasi" ni o'qir ekanman, alloma bu asarlari orqali insonlarni bilim va ma'rifat chirog'ini yoqishga, har bir masalaga ilmiy-aqliy yondashishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, fan hamda madaniyatni egallahsga, xullas, insoniylikning eng yaxshi xislatlarini o'zida aks ettirib, mujassamlashtirishga va inson degan ulug' nomni yanada yuqori ko'tarishga chaqiradi. Olim o'zi da'vat etgan yo'liga namuna o'laroq o'z davridagi mavjud fan taraqqiyotining barcha bosqichlarni mukammal egallaydi. Ibn Sino o'z asarlarida

insonlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlikka alohida ahamiyat berib, odamlarni bir-birlari bilan do'st-inoq bo'lib yashashga, pastkashlikka olib keladigan adolatni yo'qotishga chaqiradi. Har bir inson hayotda o'z do'stiga mehribon bo'lish, qo'lidan keladigan yordamlarni ayamaslik, do'stidagi nuqson va kamchiliklardan yuz o'girmaslik, aksincha uni yo'qotishga harakat qilish kabilar ibn Sinoning asarlarida keng o'rinni olgan. O'z asarlarida ezgulik, mehr-u muhabbat, insonparvarlik singari umumbashariy g'oyalarni tarannum etgan Ibn Sinoning boy va betakror ma'naviy merosi, asrlar o'tsa-da, o'zining jilosi, jo'shqinligi va ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Abu Ali ibn Sino jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan bo'lib, uning ilmiy ishlari o'sha davr fani taraqqiyotining eng yuqori cho`qqisini tashkil etadi. Ibn Sino ma'naviy me'rosini o'rganish orqali milliy madaniy merosni tiklash va rivojlantirish, shuningdek yoshlarni axloqi va madaniyati jihatdan tarbiyalash hamda diniy qadriyatlarimizni, ma'naviy merosimizni qadrlashga o'rgatishimiz mumkin. Shundagina uning qarashlari kelajak avlod faoliyati uchun dasturamal bo'lib, ularning ajdodlarga munosib avlod bo'lib yetishishiga undaydi. Bunday nuqtayi nazar, xalq taqdiriga bevosita daxldor bo'lib, o'zining yorqin ma'nosi va kuchli mantig'i, mustahkam hayotiy asosga ega ekani bilan ajralib turadi.

Men "Ibn Sino ilmiy merosi- tarixiy ma'nba sifatida" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishimdan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va mulohazalarni keltira olaman:

- Bugungi kunga qadar Abu Ali ibn Sino asarlari hali-hanuz to'liq holatda o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Ularni tarjima qilish yoshlarning turli fan sohalarida bilim va ko'nikmalarini boyitishga katta xizmat qiladi deb hisoblayman.
- Xorijiy mamlakatlarning muzey va arxivlarida saqlanayotgan Ibn Sino asarlarini yurtimizga qaytarish, hech bo'limganda ularning faksimiliyalarini yurtimizga olib kelish.

- Ibn Sino hayoti va faoliyatini yorituvchi hujjatli filmlar, videofilmlar, teleseriallar hamda teatr namoyishlari yaratish va keng ommaga namoyish etish orqali vatanparvarlik va ajdodlar merosiga bo'lgan e'tiborni shakllantirish.
- Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarining nomini abadiylashtirish maqsadida, jumladan Ibn Sino xotirasini ham abadiylashtirish masalasida, allomaning surati, qisqacha tarjimayi holi aks ettirilgan brashuralar, emblemalar, medalyonlar, pochta markalari va etiketkalar chop etishni yo'lga qo'yish.
- Ibn Sino muzeyi fondini yanada boyitish, turizmni rivojlantirish maqsadida muzey atrofidagi infratuzilmani rivojlantirish, servis xizmatini yo'lga qo'yish iqtisodiy jihatdan foydadan holi bo'lmaydi deb hisoblayman.

## **Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati.**

### **Rahbariy adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 56 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: "O'zbekiston", 1997. - 300 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch. - T.: "Ma`naviyat", 2008. - 173 b.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirsiz kelajak yo'q. – T.: "O'zbekiston", 1998. - 32 b.

### **Adabiyotlar.**

1. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 212 b.
2. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 2-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 328 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 3-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 820 b.
4. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 4-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 772 b.
5. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 5-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, – 590 b.
6. Abu Ali ibn Sino. Tarjimai holi. – T.: Fan, 1980. – 44 b.
7. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'gitlar. - T.: Mehnat, 1991. - 191 b.
8. Abu Ali ibn Sino. Ziynat. - T.: Cho'lpon, 1992. - 64 b.

9. Abu Ali ibn Sino. Solomon va Ibsol. – T.: G’afur G’ulom, 1980. - 132 b.
10. Irisov A. “Hakim ibn Sino”, - T.: “O’zbekiston”, 1992. - 100 b.
11. Karimov I, Karimova S. “Tibbiy o’gitlar”. - T.: “Mehnat”, 1991. - 344 b.
12. Qodirov A, Soipov U. “Abu Ali ibn Sino o’rta osiyolikbuyuk medik-olim”. – T.: “Meditina”, 1980. - 400 b.
14. Tillayeva Sh, Raxmatova D, Nurboyev F, Raupova D. Ibn Sino sog’lom turmush tarzi asoschisi://Buxoro.: “Barkamol avlodni tarbiyalash va yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta’lim,fan,ishlab chiqarish aloqadorligi: muammo va yechimlar” ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, 2015 yil 17 yanvar. -378 b.

### **Vaqtlı matbuotlar.**

1. Abdullayev Y. Sino siyosini yod etib.// Fan va turmush 4-son, 1980 yil 5 aprel.
2. Ahadova M. Donishnama // Fan va turmush.4-son, 1980 yil 3 aprel.
3. Ergashov M. Qomusiy ilmlar sultoniga ehtirom.// Buxoronomma 15-son, 2005 yil 19 noyabr.
4. Farmonov R. Ibn Sino ta’limotida tarbiya.// Buxoro oqshomi .8-son, 2016 yil 21 aprel.
5. Jamolov K. Buyuk olim kashf etgan giyohlar.// Shofirkon haqiqati. 2-son, 1980 yil 5 mart.
6. Jumaboyev Y. O’rta Osiyolik alloma sabog’i.// Fan va turmush 6-son, 1980 yil 25 iyun.
7. Karimov B. Ibn Sino ma’rifat va jaholat haqida.//Buxoro mavjilari.2-son, 2013 yil 12 fevral.
8. Karimov U. Ming yoshli ulug’ bir siymo.// Fan va turmush 8-son, 1980 yil 2 avgust.
9. Majidov N. Tabiblar sultonii.// Fan va turmush 8-son, 1980 yil 10 avgust.

10. Sultanova G. Ibn Sino ta'limotida klassik ilmiy tafakkur tarzining shakllanish xususiyatlari.// Imom Buxoriy saboqlari 4-son, 2014 yil 22 aprel.

11. Vorokin P. Ibn Sino portreti qanday yaratildi.// Guliston 6-son, 1979 yil 17 iyun.

12. Yodgorov E. Abu Ali ibn Sino merosi-bebahoh xazina.// Turkiston. 18-son, 2014 yil 8 noyabr.

13. Yodgorov E. Ibn Sino merosi: zamonaviy tibbiyot va amaliyot // Ma'rifat. 11-son, 2015 yil 21 noyabr.

### **Internet materiallari.**

1. WWW. Pedagog.uz.

2. WWW. Tdpu.uz.

3. WWW. uznature.uz.

4 .WWW. yuriollit.uz.

5 . WWW. Ziyonet.uz.

6. WWW. books.uz.

7. WWW. allpravo.uz.

**Тарих ва маданий мерос факультети “Тарих” таълим йўналиши  
битириувчиси Асалой Юсупованинг “Ибн Сино илмий мероси тарихий  
манба сифатида” мавзусидаги малакавий битириув ишига**

**ТАВСИФНОМА**

Юртимиз жумладан жонажон Бухоромизда қадимдан жаҳон тамаддунига улкан ҳисса қўшган олимлар, уламо ва фузалолар етишиб чиқкан. Тиб илмининг буюк даҳоси бўлган Ибн Сино ва унинг илмий меросидан бугунги кунда ҳам бутун инсоният баҳраманд бўлиб келаётгани юқоридаги фикрларимизнинг исботи бўлиб хизмат қиласди. Асалой Юсупова танлаган битириув малакавий иш “Ибн Сино илмий мероси тарихий манба сифатида” мавзусида бўлганлиги ишни мазмунан ёритишда битириувчидан алоҳида билим, кўникма ва малака талаб этади.

Асалой Юсупова биитириув малакавий ишни ёзишда икки боб, тўрт банд, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат ҳолда ёзилган. Ишни мазмунан ёритишда Ибн Синонинг ҳаёт йўли, илмий, фалсафий қарашларининг шаклланиши, инсонпарварлик ғоялари, асарларидаги тарихий воқейликлар, тарихий асарларидаги ғоялар, бугунги кунда тарихий манбага айланган тарихга оид бўлмаган асарлари ва улардаги қарашлари, ғоялари, фикр-мулоҳазаларининг бугунги кундаги аҳамияти масалаларини имкон қадар очиб берган. Битириув малакавий ишни ёзишда Асалой Юсупова тарихий адабиётлар интернет материалларидан имкон қадар кенг фойдаланган. Иш битириув малакавий иш талабларига жавоб беришини инобатга олиб, Асалой Юсупованинг “Ибн Сино илмий мероси тарихий манба сифатида” мавзусидаги битириув малакавий ишини ҳимояга тавсия қилиш мумкин.

Илмий раҳбар:

Катта ўқитувчи Юсупова М.Ў.